

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O`ZBEK FILOLOGIYA FAKULTETI

**AMALIY TILSHUNOSLIK, O`ZBEK TILI VA ADABIYOT O`QITISH
METODIKASI KAFEDRASI BITIRUVCHISI**

XUDAYBERDIYEV ELDOR

**“Qissasi Mashirab” asarining maktab
darisliklarining yuqori sinflarida o`qitish
usullari.**

Mavzusidagi Bitiruv- Malakaviy Ishi

Ilmiy rahbar f.f.n. F. Badriyev.

Samarqand-2013

K I R I S H

1.Mashrab ijodining o'rganilishiga oid ma'lumotlar.

Jahon adabiyotida o'zining badiiy xazinasini, ummon ilmi bilan tanilgan allomalar ko'p bo'lgan, ammo bular ichida kitobxon qalbini larzaga soluvchi, aniqrog'i estetik zavq beruvchi asarlar yaratgan buyuk daho Alisher Navoiyning "Xamsa" asari uning lirik javohirlari necha asrlar osha bugungi kun yosh avlodning madaniy merosiga aylandi. Ochig'i hazrati Alisher Navoiy, Z.M.Boburning ijodiy durdonalari o'zidan keyingi ijodkor va shoirlarga maktab vazifasini bajarganligi hammaga ma'lum. Navoiy maktabi, Bobur maktabi, ya'ni ijodiy chashmasidan bahra olgan shoirlar ko'p bo'lgan. Bular: Xorazmiy, Ogahiy, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Furqat, Uvaysiy, Mohlaroyim (Nodirabegim) kabi ijod egalari o'zlarining birdan-bir piri komillari deb hazrati Navoiy va Bobur izidan borishadi. Navoiydan so'ng XVII asrning ikkinchi yarmida Namanganda yashab ijod etgan Boborahim Mashrab o'zining ovozi, lirik kechinmalari, hech kimda uchramaydigan avliyosifat odatlari, ayniqsa, haqiqatni – Ollohni buyuk va yaratuvchan ekanligini, shuningdek, haqiqiy pok sevgi, ya'ni ishqni ilohiy darajagacha ko'tarishi bilan bulbullar ichida – shoirlar ichida eng baland chamandan turib sayradi. Uning qalb sadolari kitobxonlar qalbidan joy olibgina qolmasdan, ularni bezota bo'lishga ishqiy tug'yoniga, ko'z yoshiga, sevgisiga sabab bo'ladi. Ilohiy ijodkor Boborahim Mashrab haqida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, ammo bular ichida mumtoz adabiyotimizning jonkuyari akademik Vohid Abdullayev, akademik Botirxon Valixojayev, Vohid Zohidov, professorlar Rahmonqul Orzibekov, Izzat Sulton, Ibrohim Haqqul, dots. Erkin Musurmonov, shuningdek, adabiyotshunos olimi Iqboloy Adizovalarning tadqiqotlari o'zining ilmiyligi, tarixiy manbalarga asoslanishi, eng muhimi, sehrli ijodkor Mashrabning poetik mahoratini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Chunonchi: taniqli

adabiyotshunos olim O'zFA akademigi V.Abdullayev shoir ijodiga xos xususiyatlar, uning asari va u bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida quyidagi ilmiy xulosaga keladi: "Xalqchillik tendensiyadagi o'zbek adabiyotining XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalaridan biri Boborahim Mulla o'g'li Mashrabdir.

Ana shunday isyonkor, shu bilan birga kishi qalbini larzaga soluvchi g'azallar egasi Boborahim Mashrabning ijodini, uning "Qissai Mashrab" asarini umumta'lim maktablarning 9-sinfida o'rganish nazarda tutilgan. Biz ushbu malakaviy bitiruv ishini yozish davomida Mashrabning adabiy merosini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-adabiy adabiyotini o'rganishni; shuningdek, adabiyot o'qitish metodikasi borasida olib borilgan ishlarni o'rganish maqsadida darslik va metodik qo'llanmalarni ko'zdan kechirishni, ular haqida o'zimizni shaxsiy mulohaza va fikrlarimizni bayon etishni maqsad qilib oldik. Bulardan tashqari viloyatimizning ilg'or maktablari tajribalarini o'rganish va pedagogik amaliyot vaqtida kuzatilgan tajribalarni umumlashtirish nazarda tutildi.

O'z-o'zidan ma'lumki, mavzuni yoritish adabiyot o'qitish metodikasi fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli bu borada yaratilgan darslik, ilmiy maqolalar, metodik qo'llanmalar mazkur ishimizning obyekti hisoblanadi. Shu maqsadda o'tgan asrning 60-80-2000 va istiqlol davrida yaratilgan adabiyotlarni o'rganish nazarda tutildi. Ma'lumki, 1967-yilda S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov tomonidan "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligi yaratilgan. Darslikda metodika fanining maqsadi, vazifalari, uning fan sifatidagi taraqqiyotini o'rganishga oid ma'lumotlar, badiiy asar tahlili, adabiy-nazariy tushunchalarini o'rganish, yozuvchi tarjimai holini o'rganish, lirik, dramatik va epik asarlarni o'rganish, shuningdek, adabiyotlar, sinfdan tashqari ishlarga oid ilmiy metodik va amaliy tavsiyalar berilgan. Ilg'or tajribalar umumlashtirilgani holda, shuningdek, mumtoz adabiyot vakillaridan A.Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat va rus adabiyoti vakillarining ijodi tahliliga oid ma'lumotlar keltirilgani holda Mashrab ijodini

tahliliga oid dars namunalari berilmagan. 60-80-yillar S.Dolmovning “Bayonlar” (1912) to‘plami, “Gulxaniy ijodini o‘rganish” (1964), A.Zunnunovning “G‘ofur G‘ulomning hayoti va ijodini 10-sinfda o‘rganish” (1962), K.Jo‘rayevning “Oybekning hayoti va ijodini X sinfda o‘rganish” (1967), S.Ismatovning “A.Qahhorning hayoti va ijodini yuqori sinflarda o‘rganish” (1968), A.Zunnunovning “O‘zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklar” (1980), Q.Ahmedovning “H.H.Niyoziyning “Boy ila xizmatchi” dramasini yuqori sinflarda o‘rganish” (1968), F.Badriyevning “Yuqori sinflarda adabiyotda sinfdan tashqari ishlar” nomli metodik qo‘llanmasi yuzaga keldi. Yuqorida tilga olingan ilmiy metodik qo‘llanmalarda Respublika maktablarida olib borilgan ilg‘or tajribalar haqida fikr yuritilgani Mashrab ijodini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan dars namunalariga duch kelmadik. Bulardan tashqari taniqli metodist olim Asqar Zunnunovning “Maktabda adabiyot o‘qitish metodikasi” (1985-1991) darsligida ham Mashrabning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar nihoyat kam uchraydi. Bu davrda yaratilgan yozuvchilarning ijodini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotlarda darsning samarali usullariga oid ma’lumotlar keltiriladi. Ammo “Qissai Mashrab” asarining tahlili berilgan emas.

2.Mashrabshunoslik va metodika.

Mamlakatimizning mustaqilligi davrida adabiyot darsliklarining yangi avlodi yuzaga keldi. Metodik qo‘llanmalar yaratildi. Bu borada prof.B.To‘xliyev, Q.Yo‘ldoshev, Mirqosimova, Niyozmetova, shuningdek, SamDU olimlaridan F.Badriyev, A.Xudoyberdiyevlarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘llanmalar diqqatga sazovardir. B.To‘xliyevning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” (2006-2010) qo‘llanmasi yaratilgan. Qo‘llanmada ta’lim bosqichlarida adabiyot kursining mazmuni, qurilishi, badiiy asar tahlili, epik, lirik, dramatik asarlarni o‘rganish hamda yozuvchi tarjimai holini o‘rganish, adabiy-nazariy

tushunchalarni o'rganish muammolari haqida bahs yuritilgan. Prof. Q.Yo'ldoshevning "Adabiy saboqlar" risolasida Xorazmiynbning "Muhabbatnoma" asarini o'rganish, shuningdek, hozirgi zamon yozuvchlarining ijodini o'rganishga oid uslubiy tavsiyalar keltirilgan. F.Badriyev, A.Xudoyberdiyevlarning metodik qo'llanmalarida metodika faning ilmiy asoslari, yozuvchining tarjimai holini o'rganish, lirik, epik va dramatik asarlarini o'rganish, badiiy asar tilini o'rganish, adabiyot, uslubiyat va unga aloqador fanlarga oid ilmiy metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Ko'rinib turibdiki, respublikamiz miqyosida darslik va metodik qo'llanmalarda ko'plab yozuvchilarning ijodini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy va metodik tavsiyalar keltirilgani holda mumtoz adabiyotimizning yirik vakili Boborahim Mashrabning ijodini atroflicha o'rganishga oid ma'lumotlar yetarli emas. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilarning ishini qiyinlashtiradi. Ana shuni nazarda tutib, ishimizning mavzusini yuqori sinflarda Mashrabning "Qissai Mashrab" asarini o'rganish usullari" deb atadik. Malakaviy bitiruv ishimizni yozish davomida quyidagi masalalarni hal etish nazarda tutildi.

1.O'zbekiston respublikasi Prezidenti I.A.Karimivning umumta'lim maktablari oldida turgan vazifali haqidagi fikrlari, milliy dastur, shuningdek, komil insonni yuzaga keltirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-nazariy fikrlarini ta'lim-tarbiya oldidagi mohiyati haqida fikr yuritish.

2.Boborahim Mashrabning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni haqida mulohazalar.

3.60-80-2000-yillar va mustaqillik davrida yaratilgan ilmiy metodik adabiyotlar tahlili va shaxsiy fikrlar.

4.Mashrab ijodini o'rganishga oid metodik tavsiyalar.

5."Qissai Mashrab" asarini o'rganishning ilg'or usullariga oid tavsiyalar va xulosalar.

I BOB

Boborahim Mashrabning hayoti va ijodini o'rganish usullari.

1.1.Boborahim Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish.

Umumta'lim maktablarida badiiy adabiyotni o'rganish uzoq tarixga ega bo'lgan xalqimizning ma'naviy hayoti, uning adabiyot, san'atga ega bo'lgan munosabatini bildirishni manbai hisoblanadi. Shu jihatdan darsliklarda o'zining adabiy merosi bilan mash'hur bo'lgan yozuvchi va shoirlarning ijodiga oid manbalar haqida fikrlar yuritilgan, ularning asarlarini yaratilishi, g'oyasi muallifning o'z davriga nisbatan munosabati, ijodiy olami, asarlari haqida ma'lumot berilganki, bu vositada jamiyat a'zolarini yetuk insonlar qilib, yetkazish maqsad qilib olingan.

O'z-o'zidan ma'lumki, ana shu vazifani bajarishda, aniqrog'i, o'sayotgan yosh avlodni komillik sari boshqarishda badiiy adabiyot tez ta'sir etuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Adabiyot faqat insonlar yashagan tarixiy jarayon, ijtimoiy hayot, badiiy namunalar haqida ilmiy tushunchalar hosil qilib qolmasdan, insonni go'zalliklar sari yetaklaydi. Unga estetik oziq beradi. Bu jihatdan ulug' daho A.Navoiyning ummon ijodiy xazinasini, ayniqsa, "Xamsa" asari pok insonlar, komil insonlarni voyaga yetkazishning badiiy-estetik manbai hisoblanadi. Buyuk Navoiyning izlaridan borgan Z.M.Bobur lirikasi, ayniqsa, uning "Boburnoma" epopeyasi, Ogahiyning qalb nuri bilan yo'g'rilgan g'azallari, Boborahim Mashrabning inson nidosini she'rga uyg'unlashtirib, g'azal ohangi bilan hayotni, ilohiyotni kuylashi, Muqimiy, Furqat, Mohlaroyim va Uvaysiylarning hijron olami va qalb qo'ri bilan yo'g'rilgan g'azallari, sog'inch she'rlari, muhabbatga to'la nidolari badiiy tasvirning yuksak namunasi bo'lishidan tashqari, kitobxonni go'zallikka, komillikka yetaklovchi manba hisoblanadi. Mana shuning uchun ham

adabiyot darsligida keltirilgan har bir yozuvchining ijodiy xazinasini o'rganish, tahlil etish, asarni yaratgan muallifning hayot yo'li, uning falsafiy-estetik qarashlari, eng muhimi, poetik mahorati haqida o'quvchilarga ma'lumot berishni taqazo etadi. Darslikda mumtoz adabiyotimiz va hozirgi adabiyotning ko'zga ko'ringan vakillari haqida ilmiy-tarixiy ma'lumotlar berilgan. Ammo ular ma'lum darajada cheklangan. Bu narsa ijodkorning badiiy olami, unga xos xususiyatlar, uning tabiati, odatlari, eng muhimi, o'z davriga nisbatan munosabati hamda estetik-falsafiy qarashlarini chuqurroq tushunib olish imkonini bermaydi.

Malakaviy bitiruv ishini yozishim davomida Mashrabning mumtoz adabiyotimizda tutgan o'rni, uning badiiy ijodining takrorlanmas xususiyatlari, ayniqsa, Mashrabning qalb sadolari sezilib turgan ga'zallari tahliliga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni ko'rishimizga, ba'zi hollarda tahlil qilishimizga to'g'ri keldi. Shu jihatdan negadir darsliklarda yozuvchining ijodiga oid ma'lumotlar qisqa berilgan. Bu narsa o'quvchilarda ijodkorning badiiy olamini atroflicha tushunish, ilg'ab olish imkonini bermaydi. Aslida yozuvchining qalbi, istagi jamiyatga, ijtimoiy hayotga nisbatan munosabati, ideali badiiy asarga ko'chgan bo'ladi. Buyuk daho A.Navoiyning lirik durdonalarida "Xamsa" asaridagi sujet – voqealar, qahramonlar sarguzashtlarida buyuk shoirning ideali bo'lajak hayotga nisbatan orzusining badiiy talqiniga duch kelamiz. Bundan tashqari Navoiy yoshlik yillari, madrasada o'qishi, Samarqandda tahsil olishi, unga dars bergan olimlarga nisbatan munosabat Jomiy bilan Navoiy o'rtasidagi insoniy muhabbat, Navoiyning xalq uchun, jamiyat uchun, oddiy fuqarolarning hayotini yaxshilash uchun olib borgan ibratli ishlari mamlakat obodonligi yo'lidagi jonkuyarligi, gumanizmi, bularning barchasi Navoiyning o'zi ta'rif etgan komil insonning hislati hisoblanadi. Ana shu jihatdan Navoiyning "Xamsa" asaridagi Farhod va Shirin, Layli va Majnun dostonidagi ilohiy sevgi vakillari Qays va Layli, "Saddi Iskandariy" dostonidagi siymolariga xos insoniy belgilar aslida Navoiyning o'zida mujassam bo'lgan. Bu fikrlarni keltirishimizga sabab o'qituvchi, yozuvchi –

ijodkorning tarjimai holi, hayot yo'li haqida ma'lumot berayotgan, uning asarlari bilan bog'liq bo'lgan bashariy belgilar haqida ma'lumot berishi, aniqrog'i, yozuvchining buyuklarga xos bo'lgan odati, ijodiy maktabi, xarakteri haqida ma'lumot berishi o'quvchilarni yozuvchi asarlarini o'qishga nisbatan qiziqishlarini ta'minlaydi. Ana shuning uchun ham umumta'lim maktablarining 9-sinfida o'rganilish kerak bo'lgan Boborahim Mashrabning hayoti va ijodiy yo'li haqida gapirganda faqat darslik ma'lumotlari bilan cheklanib qolmasdan, bu haqda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimlarning tadqiqotlariga tayanish, misollar keltirish, turli davrlarda yaratilgan rasm va miniaturalar namoyish etish darsning qiziqarli bo'lishi va asar mazmunini tushunish imkonini beradi. Bu jihatdan yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, prof. A.Zunnunov metodist olim, professorlar B. To'xliyev, Q.Yo'ldoshevlarning ilmiy metodik qarashlari shuningdek, SamDU dotsentlari F.Badriyev, A.Xudoyberdiyevlarning yozuvchi tarjimai holini o'rganish usullariga oid fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda o'qituvchi, ayniqsa, darslikka kiritilmagan, ammo o'rganilishi zarur bo'lgan asarlari haqida qisqacha ma'lumot berish, uni tahlil etish lozim bo'ladi. Bu narsa o'quvchilarda yozuvchi yaratgan asarlar haqida ma'lum darajada to'laroq bilim olish imkonini beradi. Bu imkoniyat o'qituvchining badiiy asarning tahliliga oid kirish mashg'ulotlarida yoki yakunlovchi mashg'ulotlarida amalga oshirilishi ham mumkin. Yakunlovchi mashg'ulot o'tgan darslarda aytilgan fikrlarning takrori emas, yangi ma'lumotni nazarda tutadi. Darsning bunday tashkil etilishi yozuvchining ijodiy olamiga xos bo'lgan, shuningdek, u yaratgan asarlari haqida to'laroq ma'lumotni o'quvchilarga yetkazish imkonini beradi. Bu imkoniyat darsning mazmundorligi, ilmiyligi, badiiy-estetik ahamiyatini ta'minlaydi. Yozuvchining tarjimai holini o'rganish ilmiy-metodik ahamiyati prof. B.To'xliyevning "Adabiyot o'qitish metodikasi" (T.: - 2000) darsligida ilmiy jihatdan asoslangankim, o'qituvchilarni ana shu

nazariy fikrlar asosida darsni tashkil etishi shubhasiz, ular o'tayotgan mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishiga, eng muhimi, o'rganilayotgan asarning mazmuni, g'oyasi va badiiy qimmatini ilg'ab olishga imkon beradi.

Badiiy asarlarni o'rganishda uning muallifi haqidagi ma'lumotlar ham ayrim ahamiyat kasb etadi. Bu ma'lumotlar ko'pincha, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini teranroq anglashda, asarning ijtimoiy-estetik mohiyatini to'g'ri belgilashda yordam beradi. Mazkur ma'lumotlar qayerlardan olinadi?

Ularni adiblarning o'zlari yozib qoldirgan tarjimai hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari aytilgan yoki yozma holda yetib kelgan manbalardan olish mumkin. Bu boradagi eng yaxshi omillardan yana biri adib va yozuvchilarning asarlarida saqlanib qolgan materiallardir.

Badiiy asarni tahlil qilish jarayonida adibning o'z fikrlaridan foydalanish ham yaxshi samara beradi, masalan, Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodini o'rganishda bevosita uning o'z asari – “Qutadg'u bilig” ga murojaat qilish o'rinli bo'ladi. Buning asosiy sabablaridan biri adib haqida boshqa ilmiy, tarixiy manbalarda tegishli axborotlarning saqlanib qolmaganligi yoki hozircha topilmay turishidir.

Kitob muqaddimasida adib o'zining tug'ilgan yurtini eslatib o'tadi:

*Munuqi turug'laq Quz o'rdu eli,
Tub-asli, nasabdin yurumish tili.*

*Buning tug'ilgan eli Quz urdudir,
Tub-asli, nasl-nasabdin tili so'z ochdi.*

Quz o'rdu turkiylar istiqomat qiladigan qadimiy shaharlardan biri. U Bolasog'un nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Bu asar XI asrda yaratilgan yana bir

muhtasham obida – Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida bir necha marta tilga olinadi. Jumladan, bu shaharning arg‘un lahjasida Quz ulus, o‘g‘uz lahjasida esa Quz o‘rdu deb yuritilishini Mahmud Qoshg‘ariy maxsus qayd etadi. Ayrim adiblarning tarjimai holini o‘rganishda boshqa kishilar, mashhur shaxslar, yirik olimlar, yirik davlat va jamoat arboblarning fikrlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan, A.Navoiy, Z.M. Bobur, M.Ogahiy, Furqat singari ko‘plab mumtoz adabiyotimiz vakillarining hayoti va ijodini o‘rganishda shu usuldan foydalanish yaxshi samara beradi.

“Bobur-dilbar shaxs. Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san‘atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq bo‘lib, ko‘p yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan”¹

Shuni ham qayd qilish kerakki, ijodkor tarjimai holini o‘rganishda o‘qituvchi faqat darslik materiallari bilan chegaralanib qolmasdan, yozuvchining adabiyotda tutgan o‘rni, o‘zi yashagan jamiyatga munosabati, ayniqsa, ijodga xos xususiyatlar, shuningdek, falsafiy-estetik qarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy asarlardan foydalanishi mashrabshunos olimlarning tadqiqotlari haqida o‘quvchilarga ilmiy ma‘lumot berishi yozuvchi ijodiga xos xususiyatlarni, eng muhimi, uning adabiy jarayon poetik san‘atini tushunish imkonini beradi. Biz mavzu qilib tanlagan B.Mashrab hayoti nihoyat voqealarga boy, ijodiy olami esa ummon bo‘lib, xususan, uning g‘azallarida shoirning lirik kechinmalari, oshiq dilining hijronli damlari, shu bilan birga, Mashrabning ilohiyot nuriga intilishi bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy san‘atning jonli namumalari kitobxonni bezota bo‘lishga, shoirning hayoti haqida o‘ylashga, oshiq kechinmalarini his qilishga undaydi. Olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot va xulosalar o‘zbek mumtoz adabiyotining alohida bobini tashkil etuvchi Mashrab haqidagi xulosalari

¹ Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 2010, 111-бет.

uning adabiyotimizdagi nihoyat o'ziga xos go'zal, kitobxonga estetik zavq beruvchi sahifalar haqida ilmiy tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi.

Chunonchi: feodal hukmdorlarni, reaksiya ruhoniylarni qattiq hajv qilgan, inson va adolat uchun kurashgan xalqchil shoir haqida juda ko'p hikoya va latifalar vujudga kelgan. Ularning ko'pchiligi Mashrab, Nasriddin Afandi kabi qo'rqmas, adolatparvar, dono va hozirjavob xalq qahramoni sifatida tasvir etiladi.

Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga oid ko'plab ilmiy ma'lumotlarga duch kelamiz. Ammo bular ichida universitetimizning taniqli adabiyotshunos olimi prof. R.Orzibekovning shoir haqidagi ilmiy xulosasi diqqatga sazovordir. Unda iste'dodli shoirning tabiati, din ahliga munosabati, soxta ulamolarga nisbatan shafqatsizligi, ularni fosh qilishi, yolg'iz yaratgan ilohiyotni qalbiga joylashi, eng muhimi, uning nuri-shafaqiga bo'lgan umid va intilishlarini B.Mashrab adabiy merosining tahlili va ichki qonunlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asosda talqin etilgan. O'qituvchining dars davomida bunday ma'lumotlardan foydalanishi o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan, xususan, Mashrab ijodiga bo'lgan havaslarining oshishi aniq.

Mashrabning adabiy ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g'oyalar ham, o'sha asarda, ayniqsa, keng tarqalgan qalandarlik tariqati g'oyalari ham sezilarli o'rin egallaydi. Shoir islom ta'limotidagi asosiy qoidalarini, farz-u amallarni qabul qilgani holda, ba'zilariga qarshi ochiqdan-ochiq salbiy munosabatini ham asarlarida ifoda etadi. Ularga mensimaslik, shakkoklik bilan qaraydi, ba'zan ular ustidan kuladi ham. Buning asosiy sababi shoirning:

Bir Xudodin o'zgasi barcha qalardur,

Mashrabo,

*Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay?*²

² Orzubekov R. O'zbek adabiyoti tarixi – Toshkent: 2006.

misralarida o'z ifodasini topgan. Bu misra orqali Mashrab e'tiqod qiladiganim bir Xudodir demoqchi. Agar qolimda gul bo'lmasa tikonni nima qilaman deb o'zining Allohga bo'lgan samimiy ishqini hech qanday ta'nasiz izhor qilmoqda.

1.2.Yozuvchi tarjimai holini o'rganishga oid metodik fikrlar.

Mavzu: B.Mashrabning hayoti va ijodini o'rganish.

Kirish mashg'ulotlari haqida ayrim fikrlar

Maqsad: XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida yashab ijod etgan B.Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyati

Darsning metodi: o'qituvchining ma'ruzasi, suhbat, shoir asarlarini ifodali o'qish, matn ustida ishlash.

Ko'rgazmalilik: Mashrabning ijodiy faoliyatiga oid rasmlar namoyishi

Ilmiylik: B.Mashrabning ijodiy merosiga oid ma'lumotlardan foydalanish, adabiyotshunos olimlarning fikrlari haqida ma'lumot berish

Darsning borishi: o'quvchilardan Mashrabning hayoti va ijodiga oid fikrlarni so'rash, o'qituvchining Mashrab haqidagi kirish so'zi, shuningdek, shoirning hayoti va adabiy merosi haqida ma'lumot berish

Kirish so'z: kirish so'zi haqida metodik tavsiyalar

Yozuvchi tarjimai holini o'rganishda kirish mashg'ulotlarining ahamiyati benihoyadir. O'qituvchi o'zining kirish so'zida yozuvchining adabiyotda tutgan o'rni, uning asarlarini badiiy jihatdan ustunligi, ijodkorga xos adabiy poetik mahorat, asarlarining til xususiyati, shu bilan birga, har bir ijodkorga xos individual xususiyatlar, odatlar haqida ma'lumot beradi. Qolaversa, uni o'zi yashayotgan jamiyatga munosabati, ilg'or g'oyalari, ideali haqida, shuningdek falsafiy-estetik olami haqida ham tushuncha beradi. Bu narsa o'quvchilarda yozuvchining tabiati, olami, uning asarlaridagi g'oyaviy, estetik ahamiyatini tushunib olishga imkon beradi. Eng muhimi, o'rganilayotgan mavzuni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va darsning samaradorligini ta'minlaydi. Demak, yozuvchi haqida ma'lumot berganda o'qituvchining ilmiy asosda bergan

ma'lumoti darslik ma'lumotlarini boyitishdan tashqari yangi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish imkoni tug'iladi. Ayniqsa, yozuvchi tarjimai holini o'rganish, epik va dramatik asarlarni o'rganishda, o'qituvchi ijodkorning adabiy merosiga oid fikrlarning bayoni darslikka kiritilmagan asarlar haqida tushuncha hosil qilish, ularning qisqacha tahlilini berish yozuvchining ijodi bilan atroflicha tanishish imkonini beradi. Bu haqda yuqorida aytganimizdek prof. B.To'xliyev o'zining ilmiy xulosalarini keltiradi.

Badiiy asar matni ustida ishlashda kirish mashg'ulotlarining o'rni ayniqsa katta. Ta'limning turli bosqichlarida o'rganiladigan adabiyot kursining asosiy mazmun va mohiyatini badiiy asarlarni o'rganish tashkil etadi.

O'qituvchi: Sizlar mumtoz adabiyotimizning ko'plab vakillarini bilasizlar. Bular A.Navoiy, Z.M.Bobur, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Uvaysiy, Mohlaroyim va boshqalar haqida ma'lumotga egasiz.

Kim aytadi?

Ushbu savolga o'quvchilar javob bergandan so'ng o'qituvchi ularga quyidagi savolni beradi.

Oqituvchi: Boborahim Mashrab qachon qayerda yashab, ijod etgan? U qanday shoir? "Qissai Mashrab" asarini kim o'qigan? Uning qanday g'azallarini bilasizlar?

1.O'quvchi: shoir Mashrabning "O'rtar" g'azali ayniqsa mashhur bo'lib ketgan, unda shoirning oshiq kayfiyati, sof sevgiga bo'lgan hurmati, hijron kabilar kuylanadi. Bu ashulani O'zbekiston xalq hofizi Murodjon Axmedov nihoyat yurakdan, yuqori pardalarda kuylagan.

2.O'quvchi: Men mashrabni qalandar bo'lgan deb eshitganman. U shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib, qalandarlik kasbi bilan hayot kechirgan. Ammo bu kasb kishilardan ta'ma izlash, xayr-ehson so'rash emas, Xudo yo'lida ishqni kuylagan.

3.O‘quvchi: Darslikda yozilishicha Mashrab so‘fiyona bilimga ega bo‘lgan. U Mulla Bozor Oxund va Ofoqxo‘ja qo‘lida ta‘lim olgan. Ammo uning sha‘riyatdan bilimi kuchli bo‘lgan, bu narsa ayrim ulamolarga yoqmagan. Unga to‘xmat qilishgan. Oqibat shoirning piri Mashrabni jismoniy jazolagan.

Mashrabning hayot yo‘li haqidagi yuqoridagi savollar umumlashtirilib, uning tarjimai holi, ijodiy faoliyati, g‘azallari, shuningdek, “Qissai mashrab” asari haqida ma‘lumot berish nazarda tutiladi. Shu maqsadda o‘qituvchi adabiyot darsligida keltirilgan ma‘lumotlarni bayon etishdan oldin Mashrabning o‘zbek mumtoz adabiyotida tutgan o‘rni, shuningdek, shoirning boshqalarga o‘xshamaydigan tabiatiga oid ma‘lumotlarni bayon etadi:

– O‘zbek mumtoz adabiyotining XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrning boshlarida yashab, ijod etgan atoqli namoyondalaridan biri Mulla Vali o‘g‘li Mashrabdir. Mashrabning hayoti va ijodiy faoliyati asosan o‘rta Osiyo shahar-qishloqlarida kechgan, u ishqiy, tasavvufiy, isyonkorona she‘rlari bilan shuhrat qozongan, xalq qalbidan chuqur joy olib, o‘zi to‘g‘risida hikoyat, rivoyat, naql va afsonalarning paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘lgan.

– Mashrab lirik shoirdir. Uning she‘rlari “Devonai Mashrab”, “Eshon Mashrab”, “Eshon shoh Mashrab”, “Eshon shoh Mashrab devonai Namangoniy” yoki “G‘azali Eshon shoh Mashrab”, “Muhammad shoh Mashrab” nomlari bilan kitobat qilingan.

Boborahin Mashrabning hayoti, umr tarsi rang-barang, afsonalarga boy bo‘lganidek, uning ijodi – adabiy merosi ham har xil falsafiy qarashlar, diniy talqinlar, ayniqsa, tasavvufiy qarashlarga boy bo‘lganligi sababli adabiyotshunos olimlar, tarixchi, faylasuflarning diqqat-e‘tiborini o‘ziga qaratib kelgan. Bu jihatdan rus va sharq olimlarining izlanishlari, adabiy xulosalari haqida qisman ma‘lumotni o‘zining kitobida joylashtirgan Iqboloy Adizova B.Mashrab haqidagi ilmiy talqinlarini dars davomida keltirilishi, albatta, mashg‘ulotning ham ilmiy, ham samarali bo‘lishini ta‘minlaydi.

Zotan, bugungi kunda badiiy adabiyotni umumta'lim maktablari, litsey, kollejlarda o'rganish o'qituvchilar atroflicha izlanishni, darsga puxta tayyorlarlik ko'rishini, yozuvchi haqida tarixiy-ilmiy manbalar to'g'risida ma'lumot keltirishni talab qiladi. O'qituvchi yuqoridagi metodik ko'rsatmalarga amal qilgan holda Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshevlar tomonidan nashr etilgan 9-sinflar uchun adabiyot darsligida B.Mashrabning tarjimai holi va ijodiy faoliyatiga oid ma'lumotlarni bir butun holicha o'quvchilarga ifodali o'qib berishi talab qilinadi.

Sababi, darslikda mashrabning dunyoviy bilimi, badiiy olami, g'azal yaratishdagi ijodiy metodi, uslubi, poetik mahorati, falsafiy-estetik qarashlariga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Boborahim Mashrabning hayoti va ijodini o'rganishga birinchi o'rinda u yashagan davr, ijtimoiy muhit va tasavvufiy ilmlarni omuxtalashtirgan holda kirishilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki bularsiz o'quvchilar Mashrab va uning ijodini hazm qilishga burmuncha qiynaladi. Agar Mashrab yashagan davrga e'tibor beradigan bo'lsak, O'rta Osiyoda uchta bir-biiga dushman davlat mavjud edi. Bu davlatlarning o'zaro urushlari natijasida oddiy fuqorolarning yashash tarzi og'irlashgan, bundan tashqari mahalliy amaldorlarning ularga nisbatan zulmi kundan-kunga ortsa ortardiki, kamaymasdi. Bunday holatda Mashrab tab tortmasdan hukmdor va amaldorlarga nisbatan o'z noroziligini ochiqdan-ochiq "izhor" qiladi. (Bu haqda Shoir hayotidan so'zlovchi "Qissasi Mashrab" asaridan to'laroq ma'lumot olish mumkin.) Ana shunday xarakteri uni Balx hokimi Mahmud Qatog'on tomonidan qatl qilinishiga sabab bo'ldi.

Umuman olganda, Mashrab ijodida xuddi shunday qarama-qarshiliklar bilan birga, asosan, ilohiy ishqning kuylanganligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni uning she'rlarida chin muhabbat kuylanadi. Bu ishq birinchi navbatda ollohga, keyin insonga qaratilgan. Ammo shunday she'rlari ham borki yor ishq (inson nisbatan bo'lgan ishq) yetakchilik qiladi.

II BOB

Boborahim Mashrab she'rlari tahlili

2.1. Mashrab she'rlarining maktab darsliklari yuqori sinflarida o'qitilishiga doir metodik tavsiyalar.

Rahimbobo Mashrab tasavvuf likasining ustalaridan hisoblanadi. Chunki uning she'rlarida Alloh ishqini kuylash yetakchilik qiladi. Alloh ishqiga yetishishda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga tayyorligini ta'kidlaydi, lekin bu ishni biror narsa ilinjida qilish qoralanadi. Bunga quyida keltirilgan dars namunalari va she'rlar tahlili jaratonida guvoh bo'lasiz.

Mavzu: Boborahim Mashrabning adabiy merosi

Maqsad: Boborahim Mashrabning g'azallari, uning she'rlari va poetikasiga oid misralarini tahlil qilish, o'rganish orqali o'quvchilarga shoirning ijodiy olami haqida ma'lumot berish, ularning shoir ijodiga nisbatan havaslarini uyg'otish

Darsning borishi: avvalgi darsda o'tilgan shoir mashrabning hayoti va ijodiy faoliyatiga oid savollar orqali o'quvchilar bilimini aniqlash

Yangi mavzu: Shoir Mashrabning adabiy merosini o'rganish

O'qituvchi bolalar bilimini aniqlash maqsadida o'tgan dars yuzasidan quyidagi savollarni o'rta tashlaydi:

- 1.B.Mashrabning ilk ta'lim olish yillari qayerlarda o'tadi? Uning ustozlari kimlar?
- 2.Nima uchun Mashrab she'rlarini tasavvufga boy deb aytamiz?
- 3.Mashrab qayerlarda bo'ladi? U nega o'zini "qalandar" deb atagan?
- 4.Oshiqni sallani uloqtirishi – dahriylikmi, so'fiylikmi?

5. Mashrabning tasavvuf ta'limotiga, qalandarlik masalasiga munosabati haqida gapirib bering.

*Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o'ttum,
Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum.*

*Ofoqni bir lahzada kezdin na ajabdur,
Mino tog'idin akka sifat hakkalab o'ttum.*

*O'ttum foshu dostorini devonalig' aylab,
Parvona sifat jonimi o'tga qalab o'ttum.*

*Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,
"Borg'il narig'a" – deb ketiga shattalab o'ttum.*

*Mardomi Xudo dedik: "Dunyo mayi achchig'",
Achchig'lig'ini bilmak uchun bir yalab o'ttum.*

*Nafs kofiri birla tunu kun qildim urushni,
Tanho qilichi birla urub, qiymalab o'ttum.*

*Xomush pichog'in har dam oning bo'g'zig'a qo'ydim,
Chog' nayzasi birla ko'zini nayzalab o'ttum.*

*Devonai mashrab, bu so'zung dardga davodur,
Oshiq elining ko'ngliga bir o't qalab o'ttum.³*

Birinchi o'quvchi – B. Mashrab 1653-yilda Namanganda Valibob bo'zchi oilasida oilasida tug'ilgan. Dastlab o'z qishlog'ida mulladan ilm olib, savod chiqargan. So'ngra Mulla Bozor Oxunddan qo'lida hamda Ofoqxo'ja Eshon qo'lida ta'lim olgan.

Ikkinchi o'quvchi – Mashrab o'z g'azallarida ko'proq ollohning ishqiga muyassar bo'lishni kuylaydi. Ko'pchilik g'azallari ilohiyotga bag'shlangan. Shu

³ Бобораҳим Машраб. Девон. Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат журнфили, 1980.

sababli uning ijodida tasavvufiy-falsafiy qarashlar uchraydi. Shuning bilan birga, shoir o'z g'azallarini hayotda mavjud bo'lgan real go'zallik, yor ishqiga bag'ishlab ham g'azallar bitgan.

*Necha kundir bu ko'ngil mushtoqi diydoring erur,
O'rgulay, ey dilbari shirinzabonim qaydasan?
Holimiz behad yomondir, kelmading holim so'rab.
Ey mening xush mehribon, oromijonim qaydasan?*

Uchinchi o'quvchi – shoir o'z hayoti davomida ko'plab mamlakatlarni kezadi. Makkayu Madinada bo'lib, payg'ambarlarimiz qabrlarini ziyorat qiladilar. Undan Iroqqa, Bog'dodga o'tadi. Isyonkor shoirning bu yurishi faqat sayohat emas, u sharq mamlakatlari, jumladan, Arabistonda bo'lgan vaqtlarida tasavvuf ilmining ko'zga ko'ringan vakillari bilan uchrashadi. So'fiylardan ta'lim oladi. Shoir she'rlarining so'fiyona yozilishiga ham sabab shu.

To'rtinchi o'quvchi – “O'ttum” radifli g'azali shakkoklikni eslatadi. Mening tushunishimcha, shoir dunyoning barcha boyliklaridan voz kechganligini har qanday qoidalarni tan olmay, faqat, Olloh – Xudo yo'lida bor qiyinchiliklarni yengib o'tganini o'z g'azalida bayon etadi. She'r tasavvuf ma'nosida bitilganligi sababli o'quvchida qiyinchiliklar tug'diradi.

*Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o'ttum,
Monandi nayiston guliga o't qalab o'ttum.*

*Ofoqni bir lahzada kezdin na ajabdur,
Mino tog'idin akka sifat hakkalab o'ttum.*

*O'ttum foshu dostorini devonalig' aylab,
Parvona sifat jonimi o'tga qalab o'ttum.*

Beshinchi o'quvchi – Mashrab butun borlig'ini Ollohning ishqiga tikadi. U hayotda mavjud bo'lgan qoidalarga ham rioya qilmaydi. O'z she'rlarida soxta riokorlarni, hatto so'fiylarni ham hajv qiladi. Mashrab qayerda bo'lmasin,

haqsizlikka duch keladi. Shuning uchun ham qalandarlikni o'ziga kasb qilib shaharma-shahar, qishloqma-qishloq el ichida kezadi.

*Murodingga yetay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l,
Sitam ahlin yutay desang, qalandar bo'l, qalandar bo'l.*

Shundan so'ng o'qituvchi o'tgan darsni yakunlab, yangi mavzu Mashrabning adabiy merosini o'rganish "*Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o'ttum*", "*Agar oshiqlig'im aytsam*", "*Qalandar bo'l*", "*Mashrabman*" g'azallarining tahliliga kirishadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida ko'plab ijodkorlarning adabiy merosiga duch kelamiz. Aksariyat shoirlar ijodida haqiqiy hayotiy mahbubaning ishq, uning go'zalligi, o'ynoqi misralarda ta'riflanadi. Hatto tabiatning mo'zjalari ilohiyot yaratgan go'zal zot ma'shuqaning boshdan-oyoq tasviriga, uning kishini haytarda qoldirarli go'zalligiga bag'ishlanadi. Endi Boborahim Mashrabga kelganimizda yorning vasli, husn-u jamoli Quyoshdan o'tkirligi, oshiqni mast qilishi, shu sabab, yor go'zalligiga g'arq bo'lgan oshiq ishq daryosiga suzishi, yorga erishish yo'lida hamma narsadan voz kechishi kabi kayfiyatlarga duch kelamiz. Mashrabning boshqa ijodkorlardan ajralib turuvchi sifati uning butun borlig'i bilan Ollohni tanishi, uni sevishi, ayrim o'rinlarda borliqdan voz kechishi bilan bog'liqbo'lgan qarashlarni ilgari surganligining guvohi bo'lamiz. Mashrabning ideali asarlardagi g'oya falsafiy-estetik qarashlarga boy bo'lib, o'zining badiiy jihatdan yuksakligi takrorlanmas darajadagi o'ynoqiligi, ayniqsa, yor siymosida faqat Ollohni tan olish kabi xususisyalatlari bilan boshqa ijodkorlardan farqlanadi.

Mashrabning adabiy-ijodiy merosida diniy va tasavvufiy g'oyalar ham, o'sha asrlarda ayniqsa, keng tarqalgan qalandarlik tariqati g'oyalari ham sezilarli o'rin egallaydi. Shoir islom ta'limidagi asosiy qoidalarni, fazlu-amallarni qabul qilgani holda, ba'zilaridan qarshi ochiqdan-ochiq salbiy munosabatini ham

asarlarida ifoda etadi. Ularga mensimaslik, shakkoklik bilan qaraydi, ba'zan ular ustidan kuladi ham. Buning asosiy sababi shoirning

*Bir xudodin o'zgasi barcha g'aflatdur Mashrabo
Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay...*

shoh baytidir. Shu jihatuning dunyoqarashini ko'p mutasavvuflarnikidan ajratib turuvchi asosiy jihatdir. Undagi yolg'iz Xudoni tan olish e'tiqodi o'sha davr dindorlari uchun g'alat tuyulgan, ular Mashrab e'tiqodining tub mohiyatiga tushunib yetmaganlar. Mashrabning devonasifatligi, qalandarligi, hech narsadan qaytmasligi, "quvvai jazava"si uning shahid bo'lishiga sabab bo'lgan.

Adabiyotlar tarixida bunday qaysar aql egalari ko'p bo'lgan emas. Mashrab Mansur Halloj, Nasimiy, Naimiyning o'zbek mumtoz adabiyotidagi davomchisidir.

Mashrabning adabiy olami, uning mavjud dunyoga bo'lgan munosabati, yaratganga e'tiqodi, shu bilan birga, uning falsafiy-estetik tushunchasi o'zi yashayotgan jamiyatga, xususan, oddiy, mehnatkash fuqarolarga nisbatan muhabbati mumtoz adabiyotimizning zukko tadqiqotchisi O'zFA akademigi V.Abdullayevning ilmiy talqinida o'z ifodasini topgan. Taniqli olim Mashrab adabiy merosining bosh masalalari, uning ruhiy olami, kechinmalari, hayotga nisbatan, shuningdek, ilohiyotni tushunishi bilan bog'liq bo'lgan falsafiy qarashlari haqida quyidagilarni bayon etadi: "Mashrab ishq ilohiyni kuylovchi she'rlar ham bitdi. U "yor" obrazi orqali Xudoni tasvirlab, unga erishmoq uchun kishi o'zligidan voz kechishi, o'zini bilmas darajada e'tiqodli bo'lishi kerak deydi:

*Oshiq uldur tanda jonin bilmasa,
Mast bo'lib xonumonin bilmasa.
Jumla yakson bo'lsa ishq oldida xor,
Uldurur maqsudi oshiq poydor".*

“Mashrab dunyoviy ishq, hayotiy muhabbat mavzularida zamonasining ajoyib g‘azallarini, o‘ynoqi, sho‘x lirikasini, oshiq va ma’shuqalarning kayfiyatiga qarab goh xushnud, goh g‘amgin taronalarni o‘ziga xos mahorat bilan yaratib qoldirgan shoirdir”

O‘zining lirik dunyosi, falsafiy qarashlari, ayniqsa, “yor” timsoliga erishish yo‘lidagi g‘azallari bilan elga tanilgan she‘rlari hofiz tillarida jo‘r bo‘lgan, shu bilan birga, oddiy yupun xalqning ohu-zorlarini o‘z she‘rlarida faryod bilan kuylagan Mashrabning ijodini faqat tasavvuf ilmi bilan bog‘lash uni faqat yaratganning ruhiga erishish yo‘lidagi g‘azallar sohibi deb baholash unchalik to‘g‘ri emas. Keying yillarda chop etilgan adabiyotlarda Mashrabni ilohiy ishq kuychisi, qalandarlik kasbini o‘ziga singdirgan avliyo, tariqat targ‘ibotchisi degan talqinlarga duch kelamiz. Aslida bu iste’dod egasini ijodi ummoniga sog‘lom ko‘z bilan qarasak, unda go‘zallikning, yorug‘likning, haqiqatning birdan-bir sababchisi yaratuvchi Olloh ekanligini tan olish bilan birga shoir ijodida u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy-ma’naviy voqealari o‘zining realistik inik’osini topa olgan. Shoir o‘z she‘rlarida haqsizlik, zulmatdan zorlanadi. Qashshoqlar holidan qayg‘uradi, shu bilan birga, o‘zining ideali hisoblangan yor vaslini real hayotda mavjud bo‘lgan pok sevgi va ilohiy sevgini ulug‘laydi. Adabiyotda asar qaysi janrda yozilmasin, unda jamiyatning voqeligi, qahramonlarning sarguzashti, o‘zaro kurashi ideali ijtimoiy hayotning realistik voqealariga asoslanmasa, bunday asar ham g‘oyaviy, ham badiiy jihatdan kitobxonning diqqat-e’tiboridan chetda qoladi. Bu jihatdan universitetimizning faxri hisoblangan adabiyotshunos olim Rahmonqul Orzibekovning ilmiy talqinlari diqqatga sazovordir: “U ishq she‘rlarida xalq sh‘riyatiga xos ta’bir, ifodalarni dalillik bilan qo‘llaydi, xalqning maqol va hikmatli so‘zlariga, an’anaviy tasvirlarga sayqal berib, o‘z she‘rlarining musiqiyligi, xalqchilligi va ta’sirchanligini ta’min etadi. E’tibor bering, quyidagi baytlarda qanchalik hayotsevarlik, insonparvarlik, jonli kishiga nisbatan iliq

munosabat bor, unda go‘zal ma’shuqaga oshiqu-shaydo bo‘lib, ne qilarini bilmay qolgan lirik qahramon qiyofasi gavdalanadi:

*Zebo sanamim yo‘l uzra ko‘rgach tura qoldim,
Nazzorasidin mavh o‘lubon o‘ltura qoldim.
G‘am tog‘ida Farhodsifat emganur erdim,
Boshimga qazo teshasi tegdi, yotaqoldim.*

She‘r ilohiy ishq, yorga bor sadoqati bilan talpinish, uning visoli orzusida nafas olish bilan birga, yerdagi inson muhabbati tuyg‘ularining ham jonli, intim olamini harorat bilan madh etadi. Ko‘z o‘ngingizda husni malohatda tengsiz real yor gavdalangandek bo‘ladi:

*Ey mug‘bacha, mag‘rubliging haddan o‘tubdur,
Ovozai husning hama olamni tutubdur,
Gulzori jamolingga xati lola bitibdur.
Mashshotan taqdir seni xush yaratibdur,
Yuzingni ko‘rub, odami jannat umitibdur,
Vah-vah, ne g‘azalsan, na ajoyib, na qiyomat,
Hay-hay, na sanam qilsa jafo jonima rohat”*

Shoir asarlari haqida uzoq yillar bahs-munozarali fikrlar bayon etib kelindi, ammo so‘nggi yillarda uning she‘lari mohiyatini siyosatdan kelib chiqib emas, balki, obyektiv anglay boshlayapmiz. Chunki, Mashrabning ijodkor sifatidagi asl qiyofasi she‘riyatidir.

U so‘fiy shoirdir. Uning she‘riyati asosida tasavvufiy g‘oyalar talqini turadi. Xo‘sh tasavvufning o‘zi nima?

Tasavvuf – bu inson o‘zini tanish orqali Ollohni tanish va sevish ilmidir. U “Insonning ichki olami, ya’ni botinini tadqiq etuvchi ilmdir”. Inson umri tadriji ikki qarama-qarshi qutb – ezgulik va yovuzlikning kurashidan iborat. Tasavvuf ta’limotining mohiyati odamzotga o‘z vujududa mavjud nafsoniy intilishlarni fosh etish, ularni yengish yo‘llarini ko‘rsatish, ruhidagi ilohiy fazilatlarni uyg‘otish, taraqqiy toptirishdan iboratdir. Chunki, insonning yashashdan bosh maqsadi ilohiylanish, asl mohiyatga etishdir. Bining yo‘li esa bitta. O‘zini yengish, o‘zidan o‘tish va o‘ziga yetishdir.⁴

2.2.Mashrab she’rlarinig maktab o‘quvchilari uchun ahamiyatli tomonlari.

Mashrab ijodini o‘rganishda faqat darslik materiallari bilan foydalanish istalgan natijani bermaydi. Buning sababi darslikda Mashrabning tarjimai holi, shuningdek, ayrim she’rlaridan namunalar keltirilgani holda sinfda o‘rganilishi kerak bo‘lgan g‘azal matnining g‘oyaviy mazmuni unda bayon etilgan shoir – lirik qaharamonning kechinmalari vasliga yetish yo‘lidagi ohu-fig‘onning sabablari, aniqrog‘i, shoirning ruhiy olami kechinmalari, ijtimoiy hayotga nisbatan, borliqqa nisbatan munosabati, ideali, falsafiy-estetik qarashlari haqidagi fikrlari bayon etilmagan, bu narsa o‘ziga xos bilim yoki tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchida ham ilmiy va metodik jihatdan qiyinchilik tug‘dirgani sababli g‘azal tahlilida ba’zan xato fikrlarni aytib yuborishi mumkin. Shu sababli, bugungi mustaqillik davrimizda badiiy adabiyot o‘qitish oldida turli janrga oid asarlarni o‘rganish, tahlil qilishda ilmiylik, shu bilan birga, o‘qituvchining metodik bilimi, tushunchasi, eng muhimi, dars samaradorligini oshishini ta’minlovchi vositalardan foydalanish talab qilinadi. Bu vositalar: adabiyot fanini o‘qitishning ilmiy, didaktik va metodik talablarini mashg‘ulot jarayonida qo‘llash, mumtoz adabiyotimiz va hozirgi zamon adabiyotining ilmiy – metodologik talablari bilan bog‘liq bo‘lgan adabiyotshunos

⁴ Адизова Икболой. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи, Тошкент – «Фан» нашриёти, 2009, 105-106-бетлар

olimlarning, ijodkorlarning adabiy merosiga bag'ishlangan xulosalarini o'quvchilarga oddiy va tushunarli qilib yetkazish shu kinning dolzarb talablaridan hisoblanadi. Biz yuqorida adabiyot darsligi, shuningdek Mashrab ijodiga bag'ishlangan taniqli adabiyotshunos olimlarning ilmiy talqinlari haqida fikr yuritdik, misollar keltirdik. Bas, shunday ekan, hech kimda uchramaydigan badiiy san'at she'riy misralar, eng muhimi, falsafiy-estetik qarashlarga ega bo'lgan boborahim Mashrabning adabiy merosiga xos bo'lgan badiiy uslub, har xil pryom, poetik mahorat hamda mumtoz adabiyotimiz she'riyatining namunalari hisoblangan – g'azal, ruboiy, murabba, musabba, mulamma, muxammas, musaddas kabi she'riy namunalarning Mashrab ijodidagi talqini haqida o'quvchilarga ma'lumot berish, ularning Mashrab ijodi, dunyoviy qarashlari, badiiy-poetik mahorati haqidagi tushunchalarni boyitish imkonini beradi. Bu o'rinda Mashrab ijodida qo'llanilgan badiiy so'z san'atining o'ynoqi ko'rinishlari, namunalari universitwtimiz faxri, ko'plab olimlarning ustози hisoblangan akademik V.Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" (2-tom) darsligida har jihatdan ilmiy-poetik va metodologik jihatdan asoslangan.

Mashrab ijodini o'rganishda uning g'azallarini, she'riy durdonalarini faqat ilohiyot bilan bog'lash unchalik to'g'ri emas. To'g'ri, shoirning adabiy merosini ko'zdan kechirganimizda Mashrabning butun borlig'i, idroki, kuch-quvvati, orzu-umidini yaratganga bag'ishlagani, hayot kechirishdan maqsadi Ollohning nuriga muyassar bo'lish orzusida ekanligining guvohi bo'lamiz. Ochig'i, butun tuyg'usi, ohu-nolasi, mashaqqatli hayoti Ollohning vasliga yetish umidiga qaratilgan. Shu bilan birga, tug'yonli shoir o'z she'rlarini go'zal mahbubaning husnu-jamoli, chin muhabbati va unga erishishning mashqqatli azoblariga ham bag'ishlaydiki, bu narsa lirik qahramonning haqiqiy real insonni sevish, shu yo'ldagi hisobsiz dard-alam ichida oh-zor chekkanini ham ko'rsatadi.

Boborahim Mashrab ijodidagi yor vasli bilan bog'liq bo'lgan realistik tasvirlar, hayotiy lavhalar, aniqrog'i, shoirning haqiqiy ishq yo'lidagi qalb

sadolarining badiiy talqini shoirning ma'shuqaga bo'lgan insoniy untilishi, sadoqati, shu bilan birga, haqiqiy yorning mo'jizalarga boy tengsiz husnu-jamolini ta'riflash masalasi "O'zbek adabiyoti tarixi" (T.: - 2006) darsligining muallifi prof. R. Orzibekovning ilmiy talqinida o'z aksini topgan: "Shoirning mustazodlari ichida real inson – ma'shuqaning husnu-malohatini, yurakni o'ynatadigan darajadagi jozibasini namoyon etuvchi namunalar ancha. Ularning hammasida ishq ilohiyning ifodasini ko'raverish to'g'ri emas. Bunday namunalarning sehri kitobxonni real insonning real hayotiy tuyg'ulari bilan uchrashtiradi, unda hayotga, undagi go'zalliklarga nisbatan zavq uyg'otadi, yuragini qitiqlaydi:

*Nozik badano, sunbi xudovandi,
Jahonsan, ey ofati davron.
Zulfi musalsal, qoshi yosin, na,
Balosan, jon taxtiga sulton.
Bilmam na balo ko'z ichidin goh,
Boqarsan, ey ko'zlari ofat.
Goh munda, gahi unda manga jilva,
Qilursan, bandangga na farmon.
Egma qoshingga vo'sma qo'yib, jonim,
Olursan, rahming nega kelmaso?
Ham kulgu bila koyiribon yoying,
Otarsan, ey sarvi xiromon.*

Mashrabning barcha mustahzodlari fusnkor musiqiy ohangdorlikka ega bo'lib, kitobxon qalbiga yo'l topadi. Unda ajoyib hayotiy orzu-istaklar, kechinmalar uyg'otadi".

Alisher Navoiydan so'ng o'tgan iste'dodli o'zbek shoirlari ichida B.Mashrabning ham ustoz Navoiy bilan bog'lanadigan jihatlari ko'pdir. U

Navoiyning lirik va epik ijodidagi tasavvuf – Naqshbandiylik qarashlarini o‘z davri talablaridan, mafkuraviy g‘oyalaridan kelib chiqib rivojlantirgan yana bir mutafakkir shoirlardan biridir.

Mashrab ijodidagi ishq talqini o‘ziga xos. U Ibrohim Adham, Mansur Halloj, Attorni o‘ziga g‘oibona pir deb biladi, ularning yo‘lidan boradi. Mansur Halloj kabi o‘tli ishq o‘tida yonib yashaydi. Bu Ollohgga bo‘lgan muhabbat. U hayotning, tiriklikning mazmunini shunda ko‘radi. Uning asosiy maqsadi – Ollohni sevish va u bilan birlashish. Chunki, u insonni g‘uborlardan, vujudiy, nafsoniy qafaslardan faqat shu ishqgina ozod etishiga ishonadi. Shoir tasavvuricha bunday muhabbatga oshno bo‘lmagan ko‘ngil haqiqiy go‘zallikni his qilolmaydi. Borar manzillari torayadi. Ko‘rar ko‘zlari xiralashadi. Quyidagi baytlar ham shoirning huddi shunday nuqtai-nazari natijasi sifati natijasida maydonga kelgan deyishimiz mumkin. Uning tasavvuricha, Olloh yodisiz, ishqisiz Makkaga boorish besamar, Ka‘ba eski do‘kon yanglig‘ be‘etibor:

*Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak,
Ibrohimdan qolgan ul eski do‘konni na qilay!
Urayinmu boshima sakkiz behishtu do‘zaxin,
Bo‘lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay!*

Mashrabning ijodi haqida gapirganimizda, bu bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlarimizdan universitetimizda ko‘p yillar faoliyat ko‘rsatgan dots.E.Musurmonovning ilmiy xulosalari Mashrab ijodining yuksak darajadagi talqi, shuningdek, keying yillarda bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan I.Adizovanning shoir ijodining badiiy xususiyatlari, poetik mahoratiga oid qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi: “Mashrab asarlari badiiyati ham o‘ziga xos. Uning g‘azallari kutilmagan xalqona ifodalar bilan sayqallanadi. Timsollar tizimining ham o‘z silsilasi mavjud.

Shoirning quyidagi baytini o‘qib, yuragingda hijronning zafar rangini his eta boshlaysan, kishi:

Sarig‘ sadbarg shirin so‘z luk yuzingni kunda bir ko‘rsam,

Yuzingdin yuz o‘girmasan agar yuz ming balo ko‘rsam

Xalq orasi sariq gul hijron – ayriliq timsoli deyishadi. Demak, bu baytda “sarig‘ sadbarg” – atirgul haqida gapirilishi tasodifiy emas”.

Mavzu: Boborahim Mashrabning “O‘ttum”, “Qoldim”, “O‘rtar”, “Qalandar bo‘l”, “Mashrabman” lirik g‘azallarini o‘rganish usullari

Maqsad: mumtoz adabiyotimizning yetuk vakili Boborahim Mashrabning tasavvufona, shuningdek, haqiqiy yor vaslini tannum etuvchi she’riy misralar haqida ma’lumot berish. She’rda ifodalangan ilohiy ishq kechinmalari, shuningdek, hayotda mavjud bo‘lgan inson go‘zal malika siymosining nurli tasvirlarining falsafiy mazmuni va estetik qismatini o‘quvchilarga yetkazish orqali ularning Mashrab ijodiga nisbatan ehtiyoj va havaslarini tarbiyalash. Mashrab ijodi bo‘yicha talabalarda badiiy ko‘nikma va estetik didni tarbiyalash.

- a) Badiiy asarni tahliliga oid ideali o‘qishi haqida ma’lumot
- b) Yuqorida tilga olingan g‘azallarni o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qilishi va tahlili.

Darsning metodi: O‘qituvchining Mashrab she’rlarining badiiy ohangdorligi, tasavvufona ohanglari, lirik kechinmalar haqidagi kirish so‘zi, ma’ruzasi, g‘azallarini ifodali o‘qish, uning tahlili, matn ustida ishlash, ta’lim berish vositalari, o‘qituvchi qo‘llagan tarqatma materiallar, ko‘rgazmalilik: Boborahim Mashrab adabiy merosi, devonlari namunasini ko‘rsatish, shoir portretini namoyishi.

Darsning borishi: Avvalgi darsda o‘tilgan Boborahim Mashrabning adabiy merosini o‘rganish yuzasidan o‘quvchilarga savol berish, monitoring va baholash, og‘zaki nazorat, savol-javob.

Yangi mavzu: “O‘ttum”, “Qoldim”, “O‘rtar”, “Qalandar bo‘l”, “Mashrabman” lirik g‘azallarining tahlili.

She‘riy asarning tahlili ayniqsa XVII-XVIII asrlarda yashab, ijod etgan tasavvuf olamining vakili Boborahim Mashrab g‘azallarini o‘rganish o‘ziga xos xususiyat va ilmiy talqinlarni talab qiladi. Bu talablar har bir g‘azalada shoirning ichki nidosi, hayajoni, yor vasliga bo‘lgan intilishi, mahbuba siymosini bashariyatning yuksak namunasi jonliligiga oid lirik kechinmalari, xususan, Ollohning nuriga erishish yo‘lidagi umid va muddaosi shoirning ijtimoiy hayotga nisbatan muhabbati borligini idrok etishi, ayniqsa, ollohni tanish yo‘lidagi falsafiy-estetik qarashlari bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra o‘qituvchi Mashrab g‘azallarining mavzusi, g‘oyasi, poetik pryomlari haqida o‘qituvchi ma‘lumot berar ekan ayniqsa she‘rda ilgari surilgan g‘oyasini to‘g‘ri talqin qilishi uning badiiy-estetik mahoratini tushunarli qilib yetkazish adabiyot darslarining qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Metodik olimlar lirik asarlarni o‘rganishda ularning janr xususiyatlari, ayniqsa, she‘rning poetik mazmuniga e‘tibor berishni, shuningdek, darsda o‘qituvchining ifodali o‘qishi, she‘riy asarni tahlil etish, uni anglashning mantiqiy-estetik shartlaridan biri ekanligini ta‘kidlaydi. Chunonchi, taniqli metodist olim prof.A.Zunnunov o‘zining “Maktabda badiiy asar tahlili” nomli qo‘llanmasida ifodali o‘qishning mohiyati, estetik qimmatini haqida ilmiy tushunchani bayon etadi:

“Ifodali o‘qish badiiy asarni anglash, estetik o‘zlashtirish, tahlil qilishning muhim vositasidir. Ifodali o‘qish o‘quvchilar nutqini o‘stirish bilan birga uning fikrini, tasavvurini rivojlantiradi. Ularda obrazli tushuncha hosil qiladi va ifrlash qobiliyatini o‘stiradi.

Ifodali o‘qish tinglovchining yozuvchi tasvirlagan manzalarini aniq tasavvur etishiga yordam beradi, o‘quvchilar ongida yozuvchi yaratgan obrazlar haqida yorqin tasavvur hosil qiladi. Ifodali o‘qishni ham o‘z ichiga oladi, puxta o‘zlashtirishni ham ta‘minlaydi.

Yozuvchi hayotini o'rganish va aks ettirish bilan birga, uni estetik baholaydi va konkret obrazlar yaratadi. Shunga ko'ra, o'quvchidan ifodali o'qish jarayonida asardagi obrazlilikni anglab boorish talab etiladi. Chunki, asarni ravon, ifodali o'qigan o'quvchidan yozuvchi tasvirlagan voqeani, g'oyani tinglovchi ongiga yetkazish ham talab etiladi. O'quvchi ifodali o'qish orqali boshqa o'quvchilarga estetik ta'sir etadi. Ularda yangi o'y-fikr hosil qiladi, boshqacha qilib aytganda, asarni ifodali o'qigan o'quvchi tinglovchida yozuvchi yaratgan obrazlarni, ularning hatti-harakatini, kechinmalarini bilishga qiziqish tuyg'usi yozuvchining fikr-o'ylari haqida tasavvur hosil qiladi. Bu ish ya'ni asarning mazmuni, temasi, tasvir vositalari, yozuvchining bu vositalardan foydalanishi, tabiiyki, o'qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi. O'qituvchi bu ishlarni amalga oshirish bilan o'quvchilarning ifodali o'qish san'atini egallashlariga erishadi. Ifodali o'qish badiiy asarni mazmun va shakl birligida o'rganishni, asarni badiiy tahlil qilishni ta'minlaydi. M.A.Rebrikovaning uqtirishicha o'qituvchining ifodali o'qishi badiiy asarni tahlil qilish, uning mazmunini anglashning asosidir, she'riy va prozaik asarlar, asosan shu usulda tahlil qilinadi".

Ifodali o'qishni metodik talablari, xususan, uning janr xususiyatlari, shu bilan birga, she'r yoki g'azalni tahlil qilish jarayonida o'qituvchining nazariy va metodik jihatdan dars nomidan nazariy va amaliy jihatdan usul va vositalar masalasi "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligida ham o'z ifodasini topgan.

"Badiiy asarlar xarakter jihatidangina emas, balki janr xususiyati jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Asarning kompozitsion tuzilishi ham ifodali o'qish yo'llarini aniqlashda muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra o'qituvchi tanlagan matnni ifodali o'qishga kirishishdan oldin uni har tomonlama mukammal o'rganib chiqishi, asarning g'oyaviy mazmunini, qahramonlarning ruhiy holati yozuvchining personajlarga munosabati, manzara va narsalar tasvirining umumiy mazmunni ifodalashdagi o'rni, asarning poetik tili, badiiy xususiyatlari kabi masalalarni ham to'la o'rganib, bilib olishi zarur. U asarning ruhi bilan tanishadi,

uni alohida bo‘limlarga ajratib, har bir qismni qanday o‘qish kerakligini belgilab chiqqandan so‘ng ifodali o‘qishga kirishadi.

Asarning har tomonlama o‘rganish natijasida ifodali o‘qishning ohangi va jur‘ati ham ayon bo‘lib qoladi. Chunki, tekstni o‘rganish orqali o‘qituvchi personajlar va muallifning ruhiy kechinmalari bilan tanishadi o‘zi ham tekst mazmunidan ta’sirlanadi va oziqlanadi. O‘qituvchining bunday ta’sirlanishi esa ifodali o‘qish orqali o‘quvchilarni maynga qiziqtirishda katta ahamiyatga ega”.

O‘qituvchi yangi darsni is‘tedodli g‘azallar egasi B.Mashrabning “Qoldim” radifli g‘azalini ifodali o‘qish bilan boshlaydi. Darslikda keltirilgan g‘azal matni nihoyat tiniq ovozda, shu bilan birga, g‘azal matnida shoirning ruhiy olami, ichki kechinmalarini hayajon bilan ifodalovchi ifoda va misralarning ma’nosi, talabiga rioya qilgan holda o‘qiladi. Bu narsa o‘quvchilarda g‘azal mazmunini tushunishlari, shoirning falsafiy ideallarini anglab olish imkonini beradi. Albatta, g‘azal nasriy asarlardan farqli o‘laroq, his-hayajon bilan o‘qiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi “Qoldim” radifli g‘azalning tahliliga kirishadi. Albatta, tahlil ilmiy, badiiy bo‘lishidan tashqari, shoirning poetic mahoratini yoritish bilan bog‘liq misralar- matn ustida ish olib boorish talab qilinadi. U ishqiy she‘rlarida xalq she‘riyatiga xos ta’bir, ifodalarni dadillik bilan qo‘llayda, xalqning maqol va hikmatli so‘zlariga ,an’anaviy tasvirlarga sayqal berib,o‘z she‘rlarining musiqiyligi, xalqchilligi va ta’sirchanligini ta’min etadi.

E’tibor bering, quyidagi baytlarda qanchalik hayotsevarlik, insonparvarlik, jonli kishiga nisbatan iliq munosabat bor. Unda go‘zal mashuqaga oshiqi shaydo bo‘lib, ne qilarini bilmay qolgan lirik qahramon qiyofasi gavdalanadi.

*Zero sanamim yo‘l ko‘rgan tura qoldim,
Nazzorasidan mahv o‘libon o‘ltira qoldim.
G‘am tog‘ida Farhodsifat emganur erdim,*

Boshimga qazo teshasi teg'di, yota qoldim.

Yuqoridagi g'azalda kishini hayratga soluvchi badiiy tashbehlar ishlatilishidan tashqari, unda mubolag'a iborasi o'rinli ishlatilgan, shu bilan birga, "G'am tog'i" iborasida Farhodning arman tog'idan kimsasiz sahrolarga suv chiqarish maqsadidagi insoniy harakatlari uning xalq mashaqqatini o'z yelkasiga olib, (mehtat) jasorat ko'rsatligiga ishora qilinadi. G'azalni o'qirkanmiz, har bir misrada shoirning ichki nidosi, ilohiy sevgisi bo'lgan umid- orzularining changi muzika kuyiga qo'shilib ketadi. Xuddi shu hissiyot lirik qahramonning ichki kechinmalari kitobxonning o'ziga mahliyo qiladi. Bir soatlik dars mashg'ulotida shoirning ideali, falsafiy qarashlari, estetik olami, g'azallardagi badiiy pryomning rang-barangligi haqida atroflicha ma'lumot berish, g'azal matnini to'lig'icha tahlil qilish imkoniyati yo'q. ana shu sababli, darslikda keltirilgan barcha g'azallarni atroflicha misrama-misra tahlil etishning imkoniyati cheklangan. Shunga qaramay, o'qituvchi shoirning ijodidan muhim o'rin olgan "Qalandar bo'l" g'azalining kirishadi. Albatta, g'azal ifodali o'qiladi. Shundan so'ng uning ilmiy, badiiy, poetik misralari haqida fikr yuritish o'quvchilarda shoirning lirik kechinmalarini ilg'ab olish imkoni tug'iladi.

Mashrab o'zining nozik, shu bilan birga, isyonkor tabiati bilan boshqa shoirlardan ajralib turadi. Shoirni na ta'ma, na boylik qiziqitirmaydi. U o'z dunyosi, kayfiyati, hayotiy e'tiqod, falsafiy qarashlarga ega bo'ladi. Bundan tashqari, ilm-ma'rifat va diniy aqidalarda, shuningdek, Qur'oni Karimni yod bilishi, islom tariqatlarini o'zlashtirganligi, musulmonchilik qoidalarini ilmiy jihatdan tahlil qila olishi nuqtai-nazaridan o'z davri mullalari, shariat peshvolarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortadi. Uning shariat qonunlarini hammadan ko'p bilishi so'fiyona qarashlarga ega bo'lgan namanganlik taniqli eshon Mulla Bozor qo'lida tahsil olishiga sabab bo'ladi. Ammo Mashrab ilmining balandligi, shariat va tariqat amallarini bemalol izohlay olishi uni o'z davrida Ofoq Xo'ja dargohiga yetaklaydi.

Xo'ja ko'plab ulamolarga tariqatdan dars berar, uyida turli joylardan kanizaklar hadya etilgan edi. ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, go'zal kanizaklardan biri g'oyibona har jihatdan ko'rkam, ilmli, pok, shu bilan birga, ayol zotini ulug'lovchi Mashrabga e'tiqod qo'yadi. Mashrab ilmda, she'riyatda, poklikda o'zi bilan eshon darsgohida umr o'tkazayotgan ulamolardan ustun edi. Mashrab g'azallarining el ichida doston bo'lishi, kuylanishi, eng muhimi, Ollohning zikrini qalbida jo etgan Xudodot shoirning obro'-e'tibori shariat tariqatida savodsiz bo'lgan ulamolarni larzaga keltiradi. Ular yo'liga o'tib, eshonga hadya qilingan kanizakning Mashrab bilan munosabatini buzib ko'rsatib, ulug' shoirning jismonan mayib qilinishiga sabab bo'ladi. O'rni kelganda shuni aytish kerakki, falakiyot ilmining dahosi Z.Ko'ragoniy astronomik jadvalining egasi, ilm-ma'rifat homiysi Mirzo Ulug'bekning hayotini erta so'ndirgan ham, adabiyotimizning ulug' ijodkori, sarkarda, davlat arbobi Mirzo Boburning joniga qasd qilgan, uni Samarqanddan chiqib ketishiga sabab bo'lganlar ham shu mutaassib eshon-u, mullalar bo'lgan. Alisher Navoiy aytganlaridek, bularning izdoshlari biz yashayotgan davrda ham mavjud bo'lib, ba'zi hollarda o'z huquqini bilmaydigan yoshlarga ta'sir etish hollari uchrab turadi.

Adabiyotlarda qalandarlikning maqsadi, ko'rinishlari haqida, eng muhimi, islom tariqatining bir namunasi ekanligi haqida har xil fikrlar bayon etilgan. Qalandarlikning mazmuni, ayniqsa, buyuk daho A.Navoiy asarlari lug'atlarida o'z ifodasini topgan. Buyuk shoirning fikricha, "Qalandar – dunyoning hamma bordi-keldilaridan voz kechib, daydib yuruvchi darvesh, devonatabiat kishi, loqayd". Bu iboraga to'liq qo'shilish to'g'ri emas, zotan B.Mashrab devona ham, loqayd ham bo'lmagan. Shoir loqayd bo'lganida, uning lirik misralarida ilohiyotning husnu-jamoli, kuchi, yaratuvchilik qudrati, bashariyatning egasi ekanligi, kitobxonni hayajonga soluvchi, ba'zan yig'latuvchi ilohiy misralarda kuylanmagan bo'lur edi. Mashrab butun borlig'i, joni, qalbi bilan ilohiyotning vasli yo'lida umid bog'lagan, takrorlanmas mo'jizaviy, takrorlanmas, lirik

misralarni yaratgan ijodkor. U hammadan aqlli, pok, dono, shu bilan bir qatorda, Xudo bergan iste'dod egasidir⁵.

Qalandarlikning tub ma'nosi, mohiyati, uning kelib chiqish ildizlari, tariqatga yaqinligi haqidagi adabiyot I.Adizovaning ilmiy tadqiqotlari Mashrab dunyosini to'liq tushunish, uning islomiy, ijodiy faoliyatiga ilmiy baho berish imkonini beradi.

Yuqorida qalandarlik mazhabi tariqatining asl mohiyati, uning ko'rinishlari, ayniqsa, bu tariqatni qabul qilgan kishilarning Ollohning vasliga yetish yo'lidagi zikri, samosi, uning qat'iy qoidalari haqida fikr yuritdik. Endi qalandar mazhabiga mansub bo'lgan shaxslarning el ichidagi faoliyati, o'zlarini tuta olishi, karomatlari, ko'rinishi, libos va tariqat qoidalariga rioya qilish bilan bog'liq bo'lgan nazariy fikrlarni bayon etish maqsadga muvofiq. Mashrabning ayrim she'rlarida XVII – XIX asrlarda Turkistonda keng yoyilgan qalandariya mazhabiga moyillik seziladi. Qalandarlik shoir nazaridabarcha yomonliklarni rad etishning qabohatlardan uzoqda bo'lishning eng yaxshi boshdan oxir hurlik, erkinlik yo'lidir. Bu erk Ollohga ko'ngil qo'ymoq hurligidir. Razolat va zalolatni yengmoq, haqiqatni ochmoq hurligidir.

Shundan so'ng o'qituvchi darslikda o'rganilishi kerak bo'lgan “O'ttum” g'azalining tahliliga kirishadi. G'azal o'qituvching ifodasi bilan o'qiladi.

Boborahim Mashrab badiiy mahorat sirlarini mukammla egallagan san'atkor shoirdir. Uning mahorati badiiy san'atlarni qo'llash bilan emas, balki lirik asarlarni quyuq falsafiy fikrlar bilan uyg'urishda ko'rinadi. Mashrab asarlari badiiyati o'ziga xos falsafiy tafakkur salmog'I bilan o'lchanadi. Mashrabning she'rlari ham o'ynoqi, ham falsafiy ma'nolarga boy. Uning g'azallarida ko'proq borliq, dunyo voqealari, undagi sirlar, haqsizlik, nafs yo'lga berilishning illatlari qattiq tanqid ostiga olinadikim, xuddi shu nafs insonlar o'rtasiga rahna solishning sababi hisoblanadi. “O'ttum” she'rida shoir rindona, shuningdek, so'fiyona qarashlarni

⁵ Абдуллаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи – Тошкент: “Ўқитувчи”, 2004.

ham bildiradikim, bunday qaraganda kitobxon Mashrab islom aqidalariga shakkoklik qilayapti degan xulosaga boradi. Aslida shoir o‘zining butun borlig‘ini Yaratganga bag‘ishlagani, buy o‘lda har qanday toat-ibodatdan voz kechganligi, kerak bo‘lsa, egnidagi kuloh-u libosini ham uloqtirishini majoziy misralarda bayon qiladi.

*Ofoqni bir lahzada kezdim na ajabdur,
Mino tog‘idin akka sifat hakkalab o‘ttum.*

Shoir ijodida jur‘at, hech narsani tan olmaslik, shu bilan birga, jasorat, mayda-chuyda aqidalarni rad etish kayfiyati kuchli. Qarang: *Ofoqni bir lahzada kezdim na ajabdur, Mino tog‘idin akka sifat hakkalab o‘ttum*. Shoirning har bir g‘azalidagi iborasida falsafiy ma‘no mujassam. U poyoni yo‘q dunyoni “*Ofoqni bir lahzada kezdim*” deydi. Albatta, chegarasi poyonsiz bo‘lgan dashtu-sahro, tog‘-utosh, o‘lchovi bo‘lmagan dengizni bir lahzada kezish mumkin emas. Ammo shoir qalban borliqqa, dunyoga o‘z munosabatini ruhan bildiradi. Uning qalbida cheksiz dunyo mujassam... qizig‘i, shundakim, islom qoidalariga ko‘ra Mino tog‘i bu Arshi a‘loni bildiradi. Shoir bu yerda har qanday to‘siqni pisand qilmay, Olloh bergan kuch, iroda qudrati bilan Yaratganning vasliga osonlik bilan erishmog‘i yo‘lidagi jasoratini poetik, majoziy misralarda bayon etadi. Albatta, badiiy adabiyotda tashbehning bunday o‘ynoqligi, sermazmunligi har bir g‘azalda voqelikning ko‘rinishlariga shoir munosabatining bildirilishi bilan birga lirik qahramon qalbida sirli tilsimot bilan bog‘liq bo‘lgan falsafiy, ilmiy qarashlarning guvohi bo‘lamiz.

Shoir borliqdan, dunyodan voz kechganligini, uning imoni, dunyosi faqat va faqat Olloh ekanligini soda misralarda ham kitobxonga yetkazadi:

*Bildimki, vafosi yo‘q ekan ushbu jahonni,
Mardona bo‘lub balki etak siltalab o‘ttum.*

Shoirning ta'biricha, dunyo – bu nafs, borliq va boylik. Shoir o'zining falsafiy fikrlarini izchil davom ettirib, qalbidagi ruhiy kechinmalarini ro'y-rost oshkor etadi. Tanho hech narsasiz Yaratganning vasliga yetishish umidini bildiradi:

*Dunyo yasanib, jilva qilib oldima keldi,
“Borg'il narig'a” – deb ketiga shattalab o'ttum.*

Mashrab ilohiy ishq sarhadlarida zohidlar bilan kelisha olmaydi. Chunki, unga zohid – jannat ilinjida yurgan ta'magir bo'lib tuyuladi. Shuning uchun ham u zohidning riyo aralash namozini bir kosa may – ishqqa almashmaydi:

*Zohid, manga bir shishada may, sanga namozing,
Ming taqvini bir kosai mayga sota qoldim.*

Mashrab ijodida real hayot go'zali ma'shuqa, shu bilan birga uning butun borlig'ini egallagan Ollohning vasli hisobsiz masralarda tarannum etiladi. Shoir yor vaslini ta'rif etgani holda hayotdagi voqealar, azob-uqubat, ruhiy kechinmalarni ham g'azal mazmuniga qorishtirib yana va yana yor vaslini ko'rish niyatidagi orzusiga o'tadi.

Chunonchi, “Qoldum” radifli g'azalida go'zallikda tengsiz bo'lgan yorga mahliyo bo'lganligi, yorning vasli quyoshdan ham o'tkirligi, uning jilvasiga bor aqida, qonun-qoidalarni rad etib, dunyodan voz kechib mahliyo bo'lganligi:

*Arz ustidan ul arshgacha shaxbozini ko'rgach,
Tan shahrida ul jon qushidek talpina qoldim.*

Bi yerda Arsh – osmon gumbazining eng oxirgi cho'qqisi bo'lib, Ollohgacha yetishishning ko'prig – shotisi hisoblanadi. Bu g'azalda ham Mashrabning Olloh

vasliga yetishi, ma'shuqaning vasli yo'lidagi harakatlari badiiy-majoziy misralarda bayon etilgan. Lirik, aslida, shoir, ijodkor tuyg'usi, hissi-hayajoni, ideali, yashashdan umidining poetik in'ikos, ruhiy kechinmalar natijasi hisoblanadi. Ana shu tuyg'ularning barchasi majoziy, falsafiy, estetik qarashlar orqali Mashrab ijodida o'z ifodasini topgan.

*G'am tog'ida Farhodsifat emganuz erdim,
Boshima balo teshasi tegdi, yotaqoldim.*

Bu misralarda badiiy poetikaning yuksak darajadagi shoir qalamiga xos bo'lgan ko'rinishlariga guvoh bo'lamiz. A.Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida jasoratli Farhodning teshasi Arman tog'ini parchalab, insonga obi-hayot baxsh etadi.

Shoir yor yo'lidagi g'am tog'i, uning sellari ichida g'arq bo'lganligining badiiy tasvirini bera olgan, uning boshiga Farhod teshasi tegishi bilan oshiq Farhodga o'xshab hishidan ketgan. Bu misralarni chuqurroq tahlil etsak, Mashrab ijodidagi o'ziga xos pafos va poetikaning hech qaysi shoirlarda uchramaydigan pryomlarning qo'llanganligiga sabab, Mashrab A.Navoiy ijodidan bahramand bo'lganligini ko'ramiz. Mashrabning "Qoldim" g'azaliga o'xshash bo'lgan g'azal va qarashlaridan uning dunyo savdolari bilan bog'liq bo'lgan, aniqrog'i, insonning nafs yo'lidagi harakatlari, ruhiy kechinmalari bilan bog'liq bo'lgan fikrlar izchil davom etadi.

Shoirning ishqiy tavsifi barobarida dunyoning ishlari, jumladan, tirikchilik tashvishlari, tan va ruhning rohat-farog'atga moyilligi, bularning esa oxir-oqibatda "Ishq"iga halaqit berishi kabi masalalar ko'tariladi.

*Dunyoga kelib loyiga bilmay bota qoldim,
Darmon yo'qidin necha og'ir so'z qota qoldim.*

Nega shoir gapni dunyoning loyidan boshladi? Chunki, bu dunyo shunday qurilganki, unga kelgan odam gunoh qilmasligi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, inson degan mavjudodga shunday tabiat berilganki, uning gunoh qilmasdan yashashi mumkin emas. Dunyoning loyi, borlig'i va shoirning unga kelib bilmay "bota qolishi" shundan. Inson ko'pincha o'z ixtiyoriga zid yashaydi. Bu uni loyga botiradi. Loyga botib yurish har qanday kishining ham darmonini oladi. Shuning uchun darmonsiz solik dardlarini batafsil yetkazib ayta olmaydi: "bir necha og'ir so'z qota qoldim".

O'zbek mumtoz adabiyotida yor vasliga bag'ishlangan ko'plab lirik asarlar: doston, g'azal, ruboiy va badiiy ijodning turli tuman janrlariga duch kelamiz. Unda yorning vasli, go'zalligi, hijron olamida yongan oshiq tilidan kuylanadi. Ammo bu mavzuning oliy nuqtasi rang-barang ko'rinishlari yor vasliga yetish yo'lidagi hijron, alam, toliqish, dardiga davo topmaslik kabi falsafiy qarashlar asosan Mashrab ijodida o'zining jonli, badiiy, shu bilan birga, ham hayotiy, ham ilohiy ifodasini topa olgan. Ana shunday she'rlar, g'azallar sirasiga uning "O'rtar", "Mashrabman", g'azallarini kiritish mumkin. O'qituvchi yuqoridagi fikrni dars davomida bayon etgan, 9-sinf darsligida keltirilgan "O'rtar" g'azalini nihoyat aruz vaznining talab-qoidalaridan kelib chiqqan holda ifodali o'qiydi.

Matn ifodali o'qilgach, g'azalda keltirilgan badiiy tasvir, shuningdek, o'ynoqi poetik misralar ustida ish olib boriladi. Shu bilan birga, g'azalning matni, uning mazmuni haqida, o'qituvchi ma'lumot beradi. G'azalda keltirilishicha oshiq – lirik qahramon, husnda tengsiz mahbuba shaydosi, uning vasli, suhbat yorni bezota qiladi. Bezota emas so'ngaklari (suyaklari) qaqshaydi. Oshiq go'zal yor ishqida hamma narsadan voz kechgan, uning butun borlig'i yorni vasliga yetish umidi bilan bog'liq. Bunday holat faqat Mashrab qalamiga xos bo'lgan falsafiy-estetik misralarda o'zining badiiy aksini topgan. Agar

Agar oshiqligim aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,

Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

qarang, shoir qalbida yorning ishq pinhoni joy olgan. Uni oshkor qilishning iloji yo'q. Mabodo oshkor bo'la qolsa, faqat oshiqning jismi, joni emas, butun jahon o't ishida qolishi – badiiy tasviri berilgan. G'azalda mubolag'a chegarasiz, doirada ishlatilgan, majoziy o'xshatishlar jonli misralarda suv ustida aks etgan inson aksidek, o'z tasvirini bera olgan. Shoir she'rlari badiiylik, majoziy, falsafiy qarashlarni o'z ichiga olsa-da, unda kitobxon uchun tushunarli bo'lgan, ravon, shu bilan birga, tarixiy, ma'rifiy, adabiylik ko'rinishlarini o'z ichiga olgan iboralarga duch kelamiz. Inson dunyoga kelibdiki, muhabbat, sevgi, fidoiylilik, ishq yo'lidagi hijron, alam yashashning mezoni bo'lib keldi. Ayniqsa, kishi balog'at dardi ichida tug'yonga (azob) giriftor bo'ladi. Bunday dard oshiq uchun bedavo hisoblanib, u ma'shuqa yo'lida giryonga aylanadi. Hushi-xayoli, ko'zi, yor umidi bilan band bo'ladi. Bu holat insonning o'smirlik daqiqalarining hamma uchun bichilgan libosi, ma'naviy olami, ruhiy kechinmasining ko'rinishi hisoblanadi. Ana shu murakkab jarayon, shoir tushunchasida quyidagicha kechadi:

Kishig'a ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur giryon,

Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

Oshiq ma'shuq yo'lida dardmand, uning azobi, hijroni faqat yaratganning o'ziga ma'lum... Uni tug'yoni na kecha, na kunduz tinchlik bermaydi. Oshiq ma'shuqa yo'lidagi azob tufayli holdan toygan, tili lol, ko'zi giryon, mahbuba shunchalik go'zal, shu bilab birga, oshiq qalbini egallaganki, bu sirni oshkor etishning ilji yo'q... Til hatto kalimaga bermaydi. G'azalda bunday falsafiy qarash Mashrab poetikasining boshqaqalarga o'xshamaydigan nihoyat sirli qarashlaridan tashqari oshqlik dardining chegarasiz azoblarini faqat ilohiy karomat bilan yechish, yor vasliga erishish mumkinligini aytadi. Ko'pchilik adabiyotshunos

olimlar Mashrab gʻazallarida faqat yaratganning vasliga erishish haqidagi intilish mavjud boʻlib, shoir oʻz umri, borligʻi, aql-idrokini shu yoʻlda, haqiqatga – ilohiyotga etgan soʻfiy ijodkor dagan gʻoyani ilgari suradi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, har bir ijodkorning asarida ilohiy qarashlar, falsafiy talqinlar yoki romantik sarguzashtlar bayon etilib qolmasdan, unda real hayot voqeligi mavjud boʻlib, u ijodkor “laborotoriya”sida qayta ishlanadi. Badiiy tus beriladi. Oqibat asarda keltirilgan qahramonlar shoirning poetik lirikasi yoki gʻazallarida qahramonning jamiyatga – hayotga insonlarga, voqelikka nisbatan realistik munosabatining ham guvohi boʻlamiz. Binobarin, Mashrab adabiy merosini faqat tasavvuf ilmi bilan oʻlchash uning gʻazallaridagi ilohiylikni chetlab talqin qilish badiiy adabiyotning mohiyatini yuzaki, shu bilan birga, birtomonlama talqin qilish bilan izohlanadi. Shoirning “Oʻrtar” gʻazalida lirik qahramonning ishq yoʻlidagi azobi, hijroni, ingrashi, qolaversa, psixologik holatini guvohi boʻlamiz. Sheʼrda tasavvufiy – ilohiy qarash mavjud boʻlgani bilan real hayotdagi yorning husni, jamoli, uning cheksiz goʻzallikni oʻzida aks ettirgan portreti badiiy sanʼat darajasiga koʻtarish tashbehlarda oʻz ifodasini topgan. Sheʼr sinchiklab oʻqilsa, unda jamiyatda mavjud boʻlgan inson jamoli, husni tarannum etiladi:

*Qayu til birla, ey jono, sening vasling bayon aylay,
Tilim lol-u, koʻzim giryon, soʻngaklarim nihon oʻrtar.*

*Yurak dard-u gʻam qat-qatki, munda qolmadi toqat,
Agar bir zarrasin vaqt desam, ishq bayon oʻrtar.*

Mashrabning hamma sheʼrlarini ham boshdan oyoq sof tasavvufiy deb qarash unchalik toʻgʻri emas. Shoir “Qaydasan” radifli gʻazalida berayotgan soʻroqlardan va matlaʼdagi gapni koʻngliga koʻchirishdan tashqari sheʼrdagi tasvir va tamsillarning barchasini bevosita atrofdagi voqelik bilan bogʻlaydi.

Dars oxirida o'qituvchi Mashrab g'azallariga xulosa yasaydi. Darsni mustahkamlash yuzasidan savollarni o'rtaga tashlab o'quvchilar bilimini aniqlaydi. Uyga vazifa qilib "O'rtar", "O'ttum", "Qoldim" radifli g'azali va "Mashrabman" radifli g'azallarini yodlab kelishni buyuradi.

III BOB

"Qissasi Mashrab" – Mashrab hayoti va ijodini o'rganishda asosiy manba

3.1. "Qissasi Mashrab" asarining o'qitilishiga doir dars namunasi.

Yangi mavzu: Boborahim mashrabning "Qissai Mashrab" asarini o'rganish usullari

Maqsadi: "Qissai Mashrab" asarining yaratilish sabablari haqida, shuningdek, shoirning g'azallarida bayon etilgan tasavvufiy, falsafiy qarashlarning mohiyatini yoritish: majoziy va haqiqiy – ilohiy ishq haqida o'quvchilarga ma'lumot berish, shuningdek, "Qissai Mashrab asarining g'oyaviy-poetik talqini haqidagi nazariy fikrlarining bayoni, hamda 9-sinf "Adabiyot" darsligida "Qissai mashrab" asaridan olingan parchalar, Mashrabning, iyd (hayit) kuni suvga cho'milish voqeasi", "Ofoqxo'ja xizmatlarida bo'lgani" haqidagi, "Ey mening nozik niholim, yoru-jonim qaydasan" haqida ma'lumot berish, shoirning Ofoqxo'ja bilan uchrashuvi tafsilotini bayon etish orqali o'quvchilarda iste'dod egasi Mashrabning adabiy merosiga nisbatan qiziqish va estetik havaslarini tarbiyalash.

Darsning metodi: O'quvchining "Qissai Mashrab" haqidagi kirish so'zi – ma'ruzasi, asarning g'oyaviy, badiiy va tasavvuf adabiyotining namunasiga oid ilmiy fikrlar bayoni; adabiyotshunos olimlarning "Qissai Mashrab" asari haqidagi talqinlarini o'rganish usullari; Mashrab g'azallarining ifodali o'qilishi, matn ustida ishlash.

Darsning ilmiyligi: “Qissai Mashrab” asariga oid ilmiy talqinlarining ilmiy bayoni.

Ko‘rgazmalilik: “Qissai Mashrab” devoning namunasi, Mashrab portretining namoyishi adabiyotshunos olimlarning shoir haqidagi ilmiy fikr va talqinlari.

Darsning borishi: “O‘ttum”, “O‘rtar”, “Qalandar bo‘l”, “Mashrabman” g‘azallarini o‘quvchilardan so‘rash.

O‘quvchilar biz o‘tgan darsda mumtoz adabiyotimizning eng sevimli, shu bilan birga, g‘azal janrida o‘ziga xos maktab yaratgan tasavvuf ilmining yorqin namoyondasi, so‘fiy darajasiga ko‘tarilgan ijodkor Boborahim Mashrabning adabiy merosi haqida, shuningdek, uning “O‘ttum”, “Qoldim”, “O‘rtar”, “Mashrabman”, “Qalandar bo‘l” kabi g‘azallarini o‘rgangan edik. Uyga vazifa qilib “O‘ttum”, “Qoldim”, “O‘rtar”, “Mashrabman”, “Qalandar bo‘l” g‘azallarini yod olish vazifasi berilgan edi. Qani, “O‘ttum”, “Qoldim”, “O‘rtar”, “Mashrabman”, “Qalandar bo‘l” g‘azallarini kim o‘qiydi? Dars davomida o‘quvchilarning yuqorida tilga olingan g‘azallarni yod olib kelganligi aniqlanadi. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarni tasavvuf ilmi bilan bog‘liq bo‘lgan she‘rlarni qanchalik o‘zlashtirganini aniqlash maqsadida quyidagi savollarni o‘rtaga tashlaydi:

1. Shoirning olamini bir lahzada kezzanligi sababini izohlang.

Birinch o‘quvchi: she‘r sho‘fiyona misralari orqali lirik qaharamonning holatini badiiy tasviri hisoblanadi. G‘azal tasavvufiy misralar bilan sug‘orilgan. Unda dunyo – makon shoirning qalbida joylashgan, xayolan butun dunyoni bir lahzada chaqqonlik va hamla bilan kezib o‘tadi:

*Ishq vodiysidan bir kecha men hay-haylab o‘ttum,
Monandi nayiston guliga o‘t qalab o‘ttum.*

2. Oshiqning sallani uloqtirishi dahriylikning ko‘rinishimi yoki so‘fiylikning?

Ikkinchi o'quvchi: Mashrab g'azallari bor bo'yicha ilohiyotga bag'ishlangan. Shoir shu yo'lda dunyoning butun aysh-ishrati, farovon hayotini rad etadi va faqat Yaratganni tan oladi. Bu yo'lda hatto namoz-u tariqatni ham ba'zan tan olmaydi. Salla musulmonchilik – tariqat belgisi, u insonning boshini o'rab, hatto olamdan o'tgach, uning jismini o'rovchi mato, shoirni sallani rad etishi dahriylikni bildiradi.

3.G'azalning matla'sida tasvirlangan jilvagar shaxsi haqida mulohazangizni ayting.

Uchinchi o'quvchi:

*Qildi menga bir jilvaye nogoh boqa qoldim,
Ul jilvasig'a din ila dunyoni sota qoldim.*

O'z-o'zidan ma'lumki, dunyo go'zalligi Yaratganning – Ollohning go'zalligiga teng kelmaydi. Uning nuri-shafaqidan tabiat, insoniyat, hayvonot dunyosi bahramand. Shoir ana shunday go'zalni husni oldida butun dunyo hech narsa emasligiga ishora qiladi.

4.G'azaldagi ma'shuqni kim deb o'ylaysiz?

To'rtinchi o'quvchi: g'azaldagi ma'shuq lirik qahramon, shoirning o'zi:

*Mashrab, yo'lida tursa parishon yurur edim,
Ul moh chiqibon burqa' ko'tardi, boqa qoldim.*

5.Qalandarlarning “og'zidan dur sochishi” deganda nimani tushunasiz?

Beshinchi o'quvchi:

*Og'izdin dur sochay desang, sharobi ishq ichay desang,
Yomonlardan qochay desan, qalandar bo'l, qalandar bo'l.*

Yuqoridagi misralardan ko‘rinib turibdiki, qalandarlik dunyo boyligi, borlig‘-u, halovatlardan voz kechishni bildirishdan tashqari, ularning fikri-zikri, umidi, orzusi faqat va faqat Ollohning shafaqi nuriga muyassar bo‘lishdir. Shu ma’noda qalandalarning og‘zidan faqat Olloh iborasi yog‘iladi.

*6. Razolatni kuydiray desang, zalolatni o‘lduray desang,
Hammasini supuray desang, qalandar bo‘l, qalandar bo‘l.*

Satrlarini izohlang.

Oltinchi o‘quvchi: shoirning talqinicha dunyoda razolat cheksiz, haqsizlik undan ham ko‘p, binobarin, bunday razolatga ega bo‘lgan, qalbida Ollohning mehri bo‘lmagan kishilardan uzoq yurish kerakligi, ularning maslagi yovvoyi qarashlarini kuydirib dunyoni poklash zarurligini aytadi.

7. Nima uchun oshiqlik bayoni jonni kuydirib, jahonni o‘rtaydi?

*Agar oshiqligim aytsam, kuyib jonu jahon o‘rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o‘rtar.*

Ma’lumki, majoziy ish bor, ilohiy ishq bor. Majoziy ishq tabiatga, real hayotga, odamlarga, insonning eng yaqin kishilariga bo‘lgan ishq hisoblanadi. Bu ishq hayot voqeligi, odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar natijasida yuzaga keladi. Haqiqiy (ilohiy) ishq – boshqa hech narsaga qiyos qilinmaydigan Yaratganni tuyish, anglay va u bilan birlik tuyg‘usi bo‘lganligi sababli bunday ishqning tafti quyoshdan o‘tkir bo‘ladi, kishiga orom bermaydi. bunday ishq pinhoni bo‘lib, kishining qalbidan joy olgan bo‘ladi. Insonni barcha azoblarini qiynoqqa soladi, uni to‘lg‘ontiradi, degan falsafiy fikr keltirilgan.

Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilar fikrini umumlashtirgan holda Mashrabning “Qissai Mashrab” asarining yaratilishi, uning ilmiy asoslari, g‘oyaviy mazmuni, poetik ko‘rinishlari haqida ma’lumotlarni keltiradi. Albatta, bu

adabiyotlar, o'zbek adabiyoti darsligi, shuningdek, Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshbekovlarning 2010-yilda nashr etilgan 9-sinflar uchun "Adabiyot" darslik-majmuasida keltirilgan matn va adabiyotshunos olimlarning "Qissai Mashrab" asaridagi ilmiy talqinlarga asoslanishi talab qilinadi.

3.2. "Qissasi Mashrab" asarining maktab darsliklarida o'qitilishiga oid metodik tavsiyalar.

O'zbek adabiyotida daho ijodkorlar hayotiga oid turli-tuman rivoyatlar bor. Bu rivoyatlarda ijodkorning nozik tabiati, elga munosabati, xalqparvarligi, insonparvarligi va ularning falsafiy-dunyoviy tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan voqealar bayon etilgan. Albatta, bunday rivoyatlarning yuzaga kelishiga sabab ijodkorning odamiyligi, insofli ekanligi, hatto karomati, ayniqsa, uning komilligini bildiruvchi voqealar haqida fikr yuritiladi. Adabiyotimizda ana shunday sifatlar egasi A.Navoiy, Z.M.Borub, Ogahiy, XX asr adabiyotining vakillari A.Qodiriy, Cho'lpon, Behbudiy kabi istiqlol kurashchilari, ular ijodini yangi ijtimoiy hayot, davrda davom ettirgan Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhorlar hisoblanadi. Buyuk daho A.Navoiy qariyb 6 asr ilgari bugungi kun istiqboli, undagi yoshlar hayoti, komil inson: Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Axiy kabi siymolarnijonli realistik qiyofasini yaratganki, ularning komil insonga xos sifatleri, ma'naviy olami, bugungi kunda yoshlarimizning bunyodkorlik faoliyati ayniqsa, ilmga chanqoqligi namoyon bo'lmoqda. Endi adabiyotimizning serqirra ijodkori, millatimizning jonkuyari A.Qodiriyga kelganimizda o'zining "O'tkan kunlar" romanida mamlakatimizda istiqlol albatta yuz berishini sevimli qahramoni Otabek siymosida bashorat etdi. Oybek o'zining "Qutlug' qon" romanidagi yo'lchi obrazi orqali o'zbek xalqining rus bosqinchilar zulmidan qutulishini tasvir etgan bo'lsa, A.Qahhor o'zining "Sarob" romanida sho'rolar tuzumining tanazzulga uchrashini Saidiy obrazi orqali bashorat etdi. Demak, ulug' ijodkorlar yaxshi asarlar yozishi bilan birga, ularda Allohning hikmati bilan bashorat qilish xislati ham berilgan

bo'lar ekan. Ana shunday bashorat egasi XVII asrning oxiri, XVIII asrning boshlarida ijod etgan Boborahim Mashrab hisoblanadi. Talantli iste'dod egasi Mashrabning hayoti, kun kechirishi, ijodi, odamlarga munosabati, shariat qoidalariga rioya qilishi, uni el o'rtasida targ'ib qilishi, karomat va bashoratlarga boy epopeya hisoblanadi. Ana shuning uchun ham "Qissai mashrab" asari ulug' iste'dod egasi Mashrab hayotining kishini haryatda qoldiruvchi epopeya hisoblanib, uning tub mohiyati, g'oyasi, badiiy va afsonaviy tasvirini shoir voqeasi bilan bog'liq bo'lgan sarguzashtlar, hikmatlar, diniy aqidalar tashkil etadi. Ana shu sababli o'qituvchi umumta'lim maktabining IX sinfida "Qissai Mashrab" asarini o'rganishda adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy manbalar va shoirning adabiy merosiga tayanishi, uni adabiyotshunoslik va metodik jihatdan tahlil etishi lozim bo'ladi. Shuning uchun ham "Qissai Mashrab"ga bag'ishlangan mashg'ulot davomida asarning yuzaga kelish sabablari haqida, shuningdek, kitob yuzasidan aytilgan ilmiy fikrlarni bayon etishi, "Qissai Mashrab" devoniga kiritilgan ayrim hikoyalarni og'zaki hikoya qilishi, bolalarga o'qitishi, shuningdek, shoirning har xil voqealar bilan bog'liq bo'lgan g'azallarini o'qishi, tahlil etishi Mashrab haqidagi darslarning samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning mavzusi, o'zlashtirishlari, eng muhimi, ularda qissada keltirilgan hikoyatlarning ta'siri natijasida islom qoidalarini to'g'ri tushunish, komillik bilan bog'liq bo'lgan ijobiy xislatlarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Darsda dastlab nazariy ma'lumot beriladi.

Shundan so'ng o'qituvchi "Qissai Mashrab" asarining yuzaga kelishi, undagi rivoyatlarning falsafiy-poetik yo'nalishlari, eng muhimi har bir qissada Mashrab tabiati, dunyoqarashi bilan bog'liq bo'lgan voqealar haqida fikr yuritadi. "Qissai Mashrab" devonidan va 9-sinf darsligidan namunalar keltiradi.

Shundan so'ng o'qituvchi darslikda keltirilgan Mashrabning "suvga cho'kish" rivoyati va piri komili Mullo Bozor Oxund bilan uchrashuv voqeasini ifodali o'qiydi.

Yuqoridagi rivoyatlar-u hikoyatlar asosida tasavvuf ilmining ko‘rinishlari, talablari, o‘zining badiiy ifodasini topganligi sababli o‘qituvchining, avvalo, tasavvuf va tasavvuf atamalarining mohiyati haqidagi darslikda keltirilgan ilmiy ma’lumotni keltirilishi o‘quvchilarda o‘zining tabiatiga xos mo‘jizaviy karomatlariga ega bo‘lgan B.Mashrab ijodining mohiyati, uning ayniqsa, diniy aqidalar bilan bog‘liq bo‘lgan falsafiy qarashlarini ma’lum darajada tushunish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu sababli o‘qituvchi “Qissai Mashrab” asaridagi rivoyatlarni tahlil qilishda avvalo, islomning tub negizini tashkil etuvchi, shariat, tariqat, ma’rifatning musulmon olamidagi talab va qoidalari haqida ham ma’lumot berishi talab qilinadi. Xuddi shu fikrni yoritishda darslikda keltirilgan “Tasavvuf va tasavvuf atamalari” haqidagi nazariy fikrni soda, ravon tilda bayon etishi, undagi ayrim tushunilishi qiyin bo‘lgan iboralarning lug‘aviy ma’nolari haqida ma’lumot berishi zarur bo‘ladi.

Keyin, yana Mashrabning “suvga cho‘kish” voqeasi va piri komili bilan yuzma-yuz bo‘lishiga oid matn ustida ish olib boriladi. Shoir Mashrab bilan onasi va Mulla Bozor Oxund voqealarining zamirida ilohiy karomatning mo‘jizalari, ularning sabablari haqida ma’lumot beriladi. O‘qituvchi yuqoridagi rivoyatlarning tahliliga o‘tadi.

– Har qanday rivoyat, afsonaning tagida biror maqsad, aniqrog‘i, badiiy asarda ishtirok etgan qahramonlarning sarguzashti, o‘z ideali yo‘lidagi kurashi, shu bilan birga real hayotda mavjud bo‘lgan voqelikning ko‘rinishi bo‘ladi. Mashrabning “suvga tushish”, “cho‘kib ketish” voqeasida ilohiyotning karomati bilan bog‘liq bo‘lgan mo‘jizaning guvohi bo‘lamiz. Alloh yer-u samoni yaratgan. Insonni, tabiatni yuzaga keltirgan. Osmondagi momoqalldiroq, chaqmoq, oy-yulduzlarning olamni yoritishi, eng muhimi, insonning paydo bo‘lishi, Yaratganning mo‘jizasi hisoblanadi. Shunday ekan mashrabning suvga tushishi oldida onaning zorlanishi, Xudoga nola qilishi oqibatida halokatdan qutilishi Yaratganning karomatidir. Bu rivoyatning asosida aslini olganda jannat maqomiga

ega bo'lgan onaning mehri, oq suti, farzandiga bo'lgan fidoyiligining in'ikosi hisoblanadi:

Ko'lni labida o'ltirib, dediki: “Ey nuri diydum, jon bolam, sizni shul umid birla boqib erdimmu, mundog' bo'lg'aningizg'a rozi emasmen”, - deb judolig' g'amidin bu g'azalni o'qidilar:

*Bu g'ariblik dashtida kuyub ada bo'ldum, bolam,
Misli ul bodi xazondek kahrabo bo'ldum, bolam.*

*Bu judolig' dardini aytay, eshiting do'stlar,
Rozi dilni aytmayin sandin judo bo'ldum, bolam!*

desalar, shoh Mashrab suvning ichida turib, anolarig'a bu baytni o'qudilar:

*Yosh qolibman otadan, ko'nglimni shod etgan, onam,
Mehribonlig'lari ul kunda ziyod etkan, onam.*

*To qiyomat bu judolig' dardig'a tushtum, debon,
Nuri chashmim, qaydasan, deb anda yod etkan, onam,*

– shoh Mashrab “Allohu Akbar” deb suvdin chiqib, anolarig'a salom berib, dedilar: “Ey, mehribonim onam, g'amg'usorim onam, mendek noqobil farzanddin rizo bo'lung, Xudoyi taolo mani shu ko'yga solibdur” – deb, Eshon Mulla Bozor Oxund xizmatig'a ravona bo'ldilar⁶.

Qissaning keying sarguzashti shoirning o'z davrida ilmida nom chiqargan Mulla Oxund bilan uchrashuviga bag'ishlangan. Mashrab aslida yoshlikdan butun borlig'ini ilm-ma'rifat, haqiqat va ilohiyotning oliy marhamatiga erishish yo'lida

⁶ Yo'ldoshev B, To'xliyev B, Yo'ldoshbekov J. 9-sinf adabiyot darsligi – Toshkent: 2006.

islom qoidalarini o'rgangan. Aniqrog'i, Qur'onni yod olgan. Uning tariqatlarini qalbida joylagan, amalda uni qo'llagan, aslida so'fiy darajasiga ko'tarilgan komil inson edi. Uning Mulla Bozor Oxund dargohida bo'lishi, undan ta'lim olishi, o'z bilimini, tariqatini yana bir bor sinash, o'z bahosini olish bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Mashrab din ahliga o'z muridiga ega bo'lgan Xo'ja Said Eshon ahliga e'tiqod qo'ygan shariatning homiylaridan edi. Bu narsa Mulla Bozor Oxund bilan bo'lgan munosabatda o'zining shariatga xos bo'lgan ifodasini topa olgan.

O'z davrida Ofoq Xo'ja Eshon o'zining karomati bilan muridlarning ko'pligi, aqidasi, so'fiyona ta'limining kuchi bilan nom chiqargan edi. Bu narsa mashrabning ruhiy olamiga ta'sir etmay qolmadi. Mashrab Namangandan Qashg'ar sari otlandi. Yo'lda ne-ne karomatlar sodir bo'ldi. Ofoqxo'ja hammani ham o'zining dargohida qabul qilmas, unga qo'l bermas edi. Ammo karomatli shoir B.Mashrab bilan bo'lgan savol-javob Ofoqxo'jani lol qoldirdi. Hatto, o'zini butun borlig'i, umidi, e'tiqodini karomatli eshonga bag'ishlagan. Mashrabni bag'riga olib, u haqida duolar qildi. Allohdan o'z duoaini ijobat bo'lishini so'radi:

“Qissai Mashrab” devonida jamlangan rivoyatlar nihoyat ko'p. Unda shoirning karomati, Allohga iltijosi, Qur'oni karimni yod olgani, qalbida ilohiy nur paydo bo'lganligi bilan bog'liq bo'lgan voqealar keltirilganki, bu voqealar bugungi kunda ham o'zining tarbiyaviy – didaktik ahamiyatini yo'qotgan emas. Eng muhimi, rivoyatlarning har birida Mashrabning hayoti bilan bog'liq bo'lgan islom qoidalarining inson hayotidagi kuchi, haqiqati ilova etilgan, shu sababli, (mazkur to'plami) Mashrab haqidagi rivoyatlarni to'plab, devon holiga keltirgan Pirmat setoriyning “Mashrab karomatlari” haqidagi voqealar, hikoyalar shoirning tabiati, ulamo-yu shaxslarga nisbatan munosabatlarini bildiruvchi, eng muhimi, uni haqiqat, Xudo tomon intilishini ta'minlovchi voqealarni o'rganish uning tub mohiyatini o'quvchilarga soda tilde yetkazish Mashrab dunyosi, falsafiy qarashlari, ruhiy olami, eng muhimi, uni shariat, tariqat, ma'rifat sari intilishini tub sabablarini o'rganish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, darsda “Qissai Mashrab” asaridagi

shoirning dunyoga kelishi hamda dini islomiyatni qalbiga jo qilishi haqidagi rivoyatni o'quvchilarga yetkazish shoirning tabiati, ichki dunyosi, yashashdan maqsadi nima ekanligini bilib olish imkonini beradi.

O'qituvchi dars oxirida "Qissai mashrab" asarining g'oyaviy mazmuni, tasavvufiy talqinlari va shoirning badiiy mahoratini yoritishga oid bo'lgan darslikdagi savollarni mustaqil ravishda o'rganib, unga javob yozib kelish vazifasini topshiradi:

1.Xudo yo'liga kirgan Mashrabning onasidan rizolik olish uchun o'zini suvga g'arq qilish tadbirini qanday izohlaysiz?

2. *"Majnun ila kezdim necha yil dasht-u biyobon,
Laylini so'rog'lab yururdim besabru somon"*

misralarida aytilgandeko'zini majnun bilan deng bilgan Mashrabning Laylisi, boshqa she'rida *"Nozik nholim, yori jonim"* deb vasf qilgan mahbubi kim edi deb o'ylaysiz?

3.Ofoqxo'janing Boborahimga "Mashrab" deb ism qo'yishini qanday izohlaysiz?

Yuqoridagi vazifalar o'quvchilarga topshirilgach, o'qituvchi o'zining yakuniy mashg'ulotida boborahim Mashrab ijodining o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni, shoir adabiy merosining o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, uning boshqa shoirlardan tubdan farq qiladigan poetik mahorati haqida ma'lumot beradi. Bu ma'lumotlar albatta, taniqli adabiyotshunos olimlarning ilmiy xulosalariga tayangan bo'lib, o'quvchilarda Mashrabshunos olimlar haqida ilmning yozuvchi ijodini baholashdagi ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Albatta, darsning tushunarli bo'lishi, samaradorligi, ayniqsa, Mashrabdek xalqning sevimli ijodkoriga ayalangan, hofizlar tilida madh etilgan iste'dod egasining poetik mahorati haqida fikr yuritish, o'qituvchidan nazariy bilim, metodik tushuncha va tajribani talab qiladi.

Bu jihatdan O'zFAning akademigi V.Abdullayev, u kishining shogirdi prof. R.Orzibekovlarning ilmiy talqinlari shoir Mashrabning adabiy olami, ijodiy maktabi, falsafiy va ilohiy qarashlarini to'g'ri tushunib olish imkonini beradi. Mashrab she'rlari vaznlarini qo'llashdagi rang-barangligi, musiqiyliigi bilan ajralib turadi. U aruzning hajaz, razaj, ramal, hafif, muzore va munzare bahrlaridagi xilma-xil vaznlarda she'rlar yozgan. Shoir hamma o'rinlarda she'r mazmunining talabiga ko'ra vazn tanlaydi. Ularni qusursiz ishlatishga muvoffaq bo'ladi. U ayniqsa, hazaji musammani solim va hazaji musammani ahrabi mahruhi mahzuf vaznlariga ko'proq murojaat etgan. Bunga sabab shuki, hazaji musammani solim bahri Mashrabning Xudojo'ylik iltijolarini qismatga to'la qarashlarini ifodalash uchun to'g'ri keladi. Uning ko'p so'fiyona she'rlari shu vaznda yozilgan. Jumladan, quyidagi baytlari g'azal hazaji musammani solim bahrida bitilgan:

*Zihi rasvo / lig'im olam / ga soldi sho' / ru shar paydo,
Nahangi no'h / falak daryo / sib o'ldi lo / hazar tanho.*

Bu bayt vaznining ritmik sxemasi quyidagicha:

Mafoilun, mafoilun, mafoilun, mafoilun

v - - - v - - - v - - - v - - -

Mashrabga ma'qul tushgan ikkinchi vazn – hazaji musammani ahrabi makfufi mahzuf esa uning she'riyatidagi yetakchi pafos – isyonkorlik ruhini ifodalashga mosdir. Shoir tasavvufiy nidolarni, ko'ngil istaklarini ifodalashda shu bahrni mahorat bilan ishlatadi.

Dunyoga / kelib loyi / g'a bilmay bo / ta / qoldim,

Darmon yog'idin necha og'iz so'z qota qoldim.

Uning ritmik sxemasi quyidagicha bo'ladi:

- - - v / v - -v / v - - / v v v - -⁷

⁷ Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. – T.: 2006. 63-64-betlar.

Adabiyotimiz tarixida o‘zining o‘ynoqi g‘azallari, lirik kechinmalari bilan shuhrat qozongan poetik mahorat egalari ko‘p bo‘lgan. Ochig‘i, har qanday she‘riyat, poetik mahoratning nurli cho‘qqilarini faqat va faqat daho A.Navoiyning bahri ummoni, she‘riyat durdonalari, ayniqsa, “Xamsa” asaridagi kitobxonni hayratga soluvchi dostonlar va undagi komillik bilan sug‘orilgan kurashi sarguzashti insonlarga ibrat bo‘lgan Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Ahiy, Iskandar kabi komil siymolar tashkil etadi.

Ulug‘ Navoiyning an‘analari Z.M.Bobur , Ogahiy, Munis, Xorazmiy, shuningdek, XVII asrning oxiri, XVIII asr boshlarida yashab, ijod etgan Mashrab tomonidan davom ettirildi. She‘riyat va g‘azalning yangi-yangi namunalari kashf etildi. Endi Mashrabning afsonalarga boy hayoti, adabiy merosi, ayniqsa, “Qissai Mashrab” asaridagi ilohiyotning nuri bilan sug‘orilgan g‘azallar tahliliga kelganda she‘riyatda yangi biro lam, yangi bir falsafa, qolaversa, o‘zini ilohiy sevgi bilan o‘ragan, olamni pok ko‘rish va halol yashashga intilgan. Buguna emas, butun borlig‘ini yaratganga hadya etgan komillik sari intilgan. Shu bilan birga tabiati nozik – Allohdan boshqa hech narsani tan olmaydigan mo‘jizaviy bir zot Mashrab siymosiga duch kelamiz. Shoirning g‘azallari qalb sadosidan qaynab chiqqan haroratni eslatadi. Bu harorat ba‘zan olamni kuydiradi...

Ana shunday g‘azallarga baho berish, uni tahlil qilish ko‘pincha adabiyotshunoslikda faqat tasavvuf bilan bog‘lab talqin etildi. Aslida har bir ijodkorning yaratgan asari real hayotining mahsuli hisoblanganligi sababli Mashrab hayoti, tabiati, ijtimoiy hayot, ularning o‘zaro munosabati, shu bilan birga, shoirning ilohiyot nuriga muyassar bo‘lish yo‘lidagi ohu-fig‘oni, isyoni tashkil etadi.

B.Mashrab hayoti, ijodiy faoliyatini o‘rganish yuzasidan olib boriladigan ishlar haqida ayrim tavsiyalar:

1.Iste’dodli shoir ijodini o‘rganishda ilmiy manbalarga tayangan holda darsni tashkil etish. Ular haqida aniq ma’lumot berish, xususan, tasavvufga oid

gʻazallarning tahlili, uning maʼnosi darslikda keltirilgan “Tasavvuf va tasavvuf atamallari” haqidagi nazariy fikrlar asosida izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

2.Darslikda keltirilgan “Oʻttum”, “Qoldim”, “Oʻrtar”, “Qalandar boʻl”, “Mashrabman” gʻazallarini oʻrganishda tushunilishi qiyin boʻlgan iboralarning luʻgʻaviy manolari yoʻl-yoʻlakay bayon etilishi zarur.

3.Gʻazallar, albatta, oʻquvchilar tomonidan yod olinishi, qayta ifodali oʻqishi, shu bilan birga, oʻqituvchi yordamida matn ustida ish olib borilishi, majoziy tashbeh va ilohiy-falsafiy talqinlarning maʼnolari yoritilishi lozim.

4.Mashrab gʻazallarida lirik qahramon ilohiyot yoʻlidagi ruhiy kechinmalari badiiy-majoziy misralarda ifodalanadi. Shuni ham unutmangki, Mashrabning gʻazallarida, shuningdek, “Qissai Mashrab” dagi rivoyatlarda insonning komillikka erishishi, Yaratganning oldidagi burchi, halolligi, odamiylik, saxiylik, ota-onasi oldidagi burchni ado etish kabi shariat-tariqat qoidalari oʻz ifodasini topgan. Shunga koʻra har bir gʻazal qissa-sarguzasht haqidagi voqealarning bayoni faqat shoirning falsafiy-ilohiy va badiiy mahorati nuqtai-nazaridan emas, uning inson tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan didaktik tomonlarini hisobga olgan holda tahlil etish, oʻquvchilarda Mashrab ijodining tub mohiyatini anglashga yordam beradi. Mashrab ijodini oʻrganishda albatta koʻrgazmalilikning qoʻllanilishi darsning samarali boʻlishiga yordam beradi.

5.Oʻz-oʻzidan maʼlumki, B.Mashrab ijodi oʻzining oʻynoqiligi, lirik kechinmalari, majoziy-poetik uslubi, falsafiy talqinlari, eng muhimi shoir ruhiyatining koʻrinishlari bilan boshqa ijodkorlardan tubdan farq qiladi. Mashrab adabiy merosi asosini ilohiy ruhiyat haqidagi majoziy misralar, qofiyalar, afsona va rivoyatlari tashkil etadi. Bu masalalarni dars davomida hal qilish oʻqituvchidan katta mahorat, nazariy, metodik bilim, tajribani tashkil etadi. Shuningdek, shoir ijodini oʻrganishga bagʻishlangan dars soatlari cheklanganligi sababli Mashrab adabiy merosini adabiyot toʻgaraklarida oʻrganish, u haqida adabiy kecha,

kitobxonlar konferensiyalarini o'tkazish o'quvchilarning shoir adabiy merosiga nisbatan havaslarining uyg'onishiga sabab bo'ladi.

Xulosa

O'rganayotganimiz "Qissasi Mashrab" xalq nasrining eng go'zal namunalaridan biridir. Mashrab hayoti va ijodi "Qissasi Mashrab, "Devona Mashrab" "Shoh Mashrab" "G'azali eshoni Shoh Mashrab", "Eshon Mashrab", "Eshon shoh Mashrab", "Eshoni shoh Mashrab devonai Namangoniy", "Muxammasi shoh Mashrab" kabi turlinomlar ostida kitobat qilingan bo'lib, mashrabxonlarning eng semimli asari sifatida katta shuhrat qozongan.

Sirtidan qaraganda xalq dostonlari qissaslarini eslatuvchi bu asarlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning asosini Mashrab haqidagi rivoyat va qissalar tashkil etadi, nasriy qism nihoyasida esa shoir she'riyatidan namunalar berib boriladi. Ko'p o'rinlarda she'riy asarlar qissa va rivoyatlar mazmuniga mos kelmasligiga asoslanib, mazkur qissa muallifi – tuzuvchisi Pirmat Setoriy shoirning afsonaviy sarguzashtlariga bag'ishlangan hikoyalarni jamlab, har bir mustaqil sujetli rivoyatga Mashrab she'rlarini ilova qilishi natijasida bu asar xalq qissalari holatiga kelib qolgan deb taxmin qilish mumkin. Ko'pgina tadqiqotchilar "Qissasi Mashrab"dagi rivoyatlarda "shoir shaxsi buzib ko'rsatilgan" yoki "Mashrab haqidagi aqlga sig'maydigan, ishonish qiyin bo'lgan" ma'lumotlar keltirilgan deb yozishadi. Bizningcha, "Qissasi Mashrab" tipidagi xalq kitoblariga kiritilgan asarlar o'zbek folklorining tarixiy rivoyat va tarixiy afsona janrlariga mansub hikoyalar hisoblanadi.

Umuman, Boboramim Mashrab o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi. Uning o'ziga xos xarakteri va ijodi usuli mavjud. Shoir, ayniqsa, o'zbek tasavvuf adabiyotini yana bir pog'ona yuqoriga ko'tara oldi. Mashrab sher'larida ilohiy va majoziy ishq o'zgacha usullar bilan kuylanadi. Uning ijodini maktab o'quvchilari tog'ridan-to'g'ri hazm qila olmaydi. Shuning uchun shoir

ijodini o'rganishda u yashagan muhit va tasavvuf ilmini ham hisobga olish kerak. Bundan tashqari, maktab darsliklariga Mashrab ijodi kiritilayotganda, ushbu mavzudan oldin tasavvuf haqida o'quvchilarga ma'lumot berish zarur. To'g'ri, maktab darsliklarida bu haqda ma'lumot berilgan. Ammo yanada aniq, yanada kengroq ma'lumot berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki tasavvufning o'zi bir alohida mavzu.

Bizning mavzumiz "Maktab darsliklarining yuqori sinflarida Boborahim Mashrabning "Qissasi Mashrab" asarini o'rganish usullari". Bu asar bizga Mashrab hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi asosiy qimmatli hisoblanadi. Bejizga bu asar maktab darsliklariga kiritilmagan. Chunki Mashrab hayoti ibratli hikoyalar va o'gitlarga boy. Ammo uning ijodini o'rganish bimuncha qiyin bo'lganligi uchun bu mavzu maktab darsliklarining yuqori sinflari uchun mo'ljallangan.

Xullas, Mashrabni o'rganish o'quvchilarda Allohga, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Uning ijodi insonni e'tiqodli, matonatli, sabr-qanoatli bo'lishga chorlaydi. Agar inson yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga ega bo'lmasa kelajakda biror-bir arzirli yutuqlarga erishishi qiyin. Bugungi kunda esa yoshlarimizdan Vatan sharafiga ko'klarga ko'tarish, ajdodlarimizga munosib voris bo'lish talab qilinmoqda. Buning uchun yoshlarimizdan Allohga, Vataniga, oilasiga, o'ziga bo'lgan kuchli e'tiqod va ishonch talab qilinadi. Bu xususiyatlarni esa ularga ta'lim-tarbiya orqali singdirish eng qulay yo'l.

I L O V A

I z o h l a r

Rabbi arini ... lan ... – Bu ibora “A’rof ”surasining 143-oyatidan. Ushbu oyatning tarjimasi quyidagicha:

“Qachonki Muso (vadalashgan) vaqtimizda (Tug’ tog’iga) kelib, Parvardigori unga (bevosita) so’zlagach u: “Parvardigorim, menga (jamolingingni) ko’rsatgin, senga bir qaray” –dedi. (Alloh) aytdi: “Meniku hargiz ko’rolmaysan. Ammo mana bu tog’ga boq. Bas, agar u (mening nazarim tushunida) o’rnashgan joyida tura olsa, sen ham meni ko’rajaksan ”.

Qachonki, Parvardigori u tog’ga ko’ringan (nazar tashlagan) edi, u parchalinib ketdi va (bu holni ko’rgan) muso xushsiz holda yiqildi. O’ziga kelganidan keyin esa dedi: “Poko Parvardigoro, o’zingga tavba qildim. Endi men iymon keltiruvchilarning avvali, peshqadammiman”.

Sharabon tahur – Mo’minlarga jannatda ulashiladigan sharob. Bu haqda “Nodirul me’roj” da shunday deyiladi: “Vaqteki, mo’minlar behishtga rirsalar, ul to’rt anhordin kosa ichsalar pohat toparlar va Rahixdin ichsalar salomatda bo’lurlar. Kofur va Salsabildin ichsalar Alloh ta’olo tarafig’a mutavajjih bo’lg’aylar. Zanjabil va Tasnimdin ichsalar Allohi ta’olo diydorig’a mushtoq bo’g’aylar. Vaqteki, Kavsardin ichsalar himmat va sofolari Alloh ta’olo muloqatig’a bo’lur. Vaqteki, sharobi Tahurdin ichsalar alloh ta’oloni bechun va bechuguna diydorig’a musharraf bo’lg’aylar”. (“Нодирул меърож” Тошкент, 1329 х. 367-бет.)

Qulhuvalihu ahad – Aytgin, Ey, Muhammad, Alloh birdir, ya’ni yogonadir.

(Куръон. Ихлос сураси, 1-оят.)

Quntu kanzan – Qolan-nabi-yu alayhissalom xabaran anillohi ta’olo:
“quntu kanzan faradtu an u’rafa faxalaqtul xalqa”.

Ya’ni payg’ambar salallohi alayhi vassallam aydilar, - hazrati Haq subhonahu va ta’olo aydi, - man bir go’shayi qanoatda yoshurug’liq ganj erdim, mani Tangrilig’imni hech kim bulmas erdi, o’z qudratimni bildirmoqni do’st tutib, qamug’ olamni xalq qildim, mani birligimgaiqrор qilsunlar deb. (Қиссаси Рабғузий. Тошкентб 1898 й, 2-бет.)

Inni zalamtu nafsi fag’fir lanal xatoyo – Men agar o’z nafsimga zulm qilsam, ya’ni gunoh ishga qo’l ursam bizning xatolarimizni o’shanda o’zing kechirgin.

Inna alayka nas’o dafial baloyo – Ey, balolarni da’f qiluvchi, albatt, biz sen tomonga talpinamiz.

Yo Rabbono taqabbal minni bahaqqi “toho” – bizning parvardigorimiz, “toho” surasi hurmati tufayli mening duolarimni qabul qilgin.

Subbuhun quddusin rabbil maloikati varruh – Poklik bilan yod qilamanki, ruh va farishtalarning parvardigori pokdir.

“Vahdahu” ham “lo sharik ” o’qib bayon keltirmisham... – Vahdadu lo sharik ... – lo iloho illallohi vahdahu lo sharika lah – Bir xudodan boshqa xudo yo’q. u (xudo) tanhodir, unga hech qanday sherik yo’q.

Chor yor, chohor yor – To’rt yor. Muhammad alayhissalomdan keyin xilofat taxtiga o’tirgan u kishiga eng yaqin bo’lganto’rt kishi – Abu Bakri Siddiq, Umri Foruq, Usmoni Zinnurayn, Aliyi Murtazo rizzvonallohinaoloalayhim ajmain.

Mash’har – to’planadigan joy, qayta tiriladigan joy (qiyomat)

“Ofoq Xo’ja – Mash’hur Mahdum A’zam Dahbetiyning avlodidan, o’lib, Xitoy Turkistonida juda katta nufuz qozong’on. Vavoti 1695 – yilda).

Barakollohul azim – Senga ulug’ Allohning barakasi bo’lsin

Yosin – Qur’ondagi 36-sura

Mashrab g’azallari va “Qissasi Mashrab” asarini o’rganishga oid lug’atlar

A

Abas – behuda , bekorga, ,befoyda

Abru – qosh

Adam – yo’qlik, fonoli

Arz – yer sharik

Ayog’ – kosa, qadax

Ajr – mukofat

Azozil – shaytonning asl oti

Alfoz – so’zlar, lafzlar

Andalib – bulbul

Ar’ar – archa, tog’ sarvi

Arjumand – aziz, sharaflı, qadrli

Arug’ – pokiza, sof, tiniq

Arsh – osmonning eng yuqorisi

Afganda – jarohatlangan, majruh

Axtar – yulduz

Axmar – qizil

B

Badr – o'n tor't kechalik to'lishgan oy, to'lin oy

Badsirisht – yomon tabiatli, yomon fe'lli

Baraxman – hindlarning otashparastlar ibodatxonasining ruhoniysi

Barq – o't, olov, chaqmoq, yashin

Baxshish – avf etish, bag'ishlash

Bayakbor – bir martada, dafatan

Bedil – yuraksiz, maxliyo, oshiq

Bekom – umidsiz, marhum, maqsadiga erisholmagan

Bismil – so'yilgan

Bovar – ishonarli

D

Digar – o'zga, boshqa

Dilafzo'z – ko'ngilni shod eyuvchi

Diliston – ko'ngil oluvchi, sevgili

E

Emganur erdim – qiynalardim

F

Fard – yolgʻiz

Fashu dastor – salla va pechi

Fasod ahli – buzgʻunchiliklar, haq yoʻlidan aynigan, imonini yoʻqotgan toifa.

Forigʻ – ozod, qutilgan, xotirjam

G

Gardun – falak, osmon

Gardon – aylanuvchi

Girya – yigʻI, koʻz yoshi

Gesu – kokil, orilgan soch

Gitu – olam, dunyo

Guzor – oʻtmoq

Guharrezlik – yoqimli, koʻngilochar soʻzlar soʻzlash

I

Iyd – bayram

Ixfo – yashirin, maxfiy

Istigʻfor – tavba qilmoq

Istigʻno – ehtiyojsizlik

Iydgoh – saylgoh, ommoviy bayramlar maydoni

J

Junun – jinnilik, devonalik

Justujo' – qidirish, izlash

K

Kavsar – jannat bulog'i

Kirom – saxovatli, aziz

Kavnayn – ikki dunyo

Kutoh – qisqa

L

Lo – yo'q

M

Markab – miniladigan hayvon

Mardud – rad etilgan, haydalgan, quvilgan

Mastag'raq – g'arq bo'lgan, g'arq etilgan

Murshid – to'g'ri yo'lga soluvchi pir

N

Nayiston – qamishzor

Nobino – ko'r

Nopadid – ko'rinmas, g'oyib

Nor – anor, olov

O

Ofoq - dunyo

Uqbo – oxirat

Otashi Namrud – fir’avn Namrud Ibrohim payg’ambarni kuydirish uchun yoqqan

Q

Qalandar – bu dunyoning barcha huzur-halovati-yu aysh-ishratidan orzu-havasidan voz kechib, haqni izlab, kezib yuruvchi so’fiy siyrat darveshlar

R

Razolat – razillik, pastkashtlik, tubanlik

Riyozat – qiynalish, mashaqqat

S

Sangora – toshbo’ron qilingan

Sayha tortish – Faryod chekish, chinqirish

Shayboz – lochin

T

Taqi – tag’in, yana

Taqvo – dindorlik, parhezkorlik; tasavvuf namoyondalari amalsiz taqvoni

V

Vahdat – birlik, yakka-yogonalik, tanholik

Vojgun – teskari

Vola – berilgan, maftun

Vohid – bitta, yakka-yagona, xodo

X

Xaliloso – Ibrohim Xalilullohdek

Xonaqoh – so’fiylarning ibodat uyi

Xunbora – ko’laridan qon oquvchi

Z

Zalolat – adashish, yo’lidan chiqish, gumrohlik

riyokorlik hisoblaydilar. Sofi-yu qalandarlar riyosiz taqvo tarafdori bo’lganlar.

Zalil – xor, past

Zaxan – bag’baqa, saqoq

Zaxm – yara

Zisht – xunuk, yomon

Zud – tez

Zuljalol – Azamat va eng buyuk, Allohning sifati

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент: ЎЗМЭ давлат илмий нашриёти, 2000. – 245 б.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 39 b.
5. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Таълим тўғрисида. Олий таълим. Меъёрий-ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Истиқлол нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004. 3-8-бетлар.
6. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида. Олий таълим. Меъёрий-ҳуқуқий ва услубий ҳужжатлар тўплами. – Тошкент: Истиқлол нашриёти шўъба корхонаси бош таҳририяти, 2004. 9-23-бетлар.
7. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Давлат тили ҳақида. Davlat va millat ramzlari. Ona tili – davlat tili.(O'quv qo'llanma – majmua). – Тошкент: Адолат, 2004. 29-35-бетлар.
8. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – Toshkent: Sharq NMAK bosh tahririyati, 2004. 8-48-betlar.

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar:

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
2. Бобораҳим Машраб. Девон. Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат журнфли, 1980.
3. Orzubekov R. O'zbek adabiyoti tarixi II tom. – T.: 2006.
4. Qissai Mashrab. T.: 1992.
5. Qosimov B, To'xliyev B, Yo'doshev Q. 10-sinf adabiyot darsligi – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
6. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi - Toshkent: 2010.
7. Yo'doshev Q, Qodirov V, Yo'ldoshbekov J. 9-sinf adabiyot darsligi – Toshkent: Yangi yo'l Poligraph service, 2006.
8. Абу Наср Фаробий. Шеър санъати. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979. –186 б.
9. Аристотель. Поэтика. (Поэзия санъати ҳақида). –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980. – 152 б.
- 10.Абдулла А в л о н и й. Биринчи муаллим, 3-табъ, Т., Порцев литографияси, 1915 й., 31-бет.
- 11.Аҳмедов С. Адабёт дарсларида эпик жанрларни ўрганиш. Адабёт ўқитувчиларига ёрдам. – Т.: Ўқитувчи, 1986, 92-б.
- 12.Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлониий ижоди. – Т.: Фан, 2004. – 157 б.
- 13.Белинский В.Г. Собр. Соч. том 2. – М., 1948. – С. 62.
14. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 557 б.
- 15.Бобохонов А, Махсумов М. Абдулла Авлониий. Педагогик фаолияти. – Т., 1966, 43-б.

16. Долимов С., Убайдуллаев Х. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 1952 й.
17. Йўлдошев Қ. Адабий сабоқлар. Умумтаълим мактабларининг 8-синф «Адабиёт» дарслиги учун методик қўлланма. – Т.: Шарқ, 2004.
18. Karimov N., Nazarov B, Normatov U, Yo`ldoshev Q. Adabiyot: umumiy o`rta ta`lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – Т.: O`qituvchi, 2004, 384 б.
19. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 320 б.
20. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 533 б.
21. Маллаев Н. Навоий ҳикоялари ва уларнинг фольклор билан боғланиши // Халқлар дўстлиги – адабиётлар дўстлиги. 124-б, 2-китоб. – Т., 1975. – Б. 103-104.
22. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. – Т., 1990. 83 б.
23. Раҳмонов М. Ўзбек театри тарихи, Т., «Фан», 1968, 327-351-б.
24. Ризаев Ш. Жадид драмаси, Т., «Шарқ», 1997, 63-71-б.
25. Самойлович А. Драматическая литература сартов. Петроград. 1917, 3-бет.
26. Тавалло. Равнақул-ислом, Т., «Фан», 1993, 53-бет.
27. Шарипов Ж. «Бадий таржималар ва моҳир таржимонлар», 58-101, 139-бетлар.
28. Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Б. 137-138.
29. Ҳожи Абдулазиз Мансур. Пайғамбарлар ҳақида // Фан ва турмуш. - 1992. - № 1. - Б. 10.

30. Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар
Муаллифи Алоуддин Мансур. - Т.: Чўлпон, 1992. Б. 210.

III. Badiiy adabiyotlar:

31. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-жомий ас-саҳиҳ (Ишонарли тўплам). Тўрт томлик. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1997.
32. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал – адаб ал – муфрад (Адаб дурдоналари). – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – 199 б.
33. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, биринчи том. Бадойиъ ул-бидоя – Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.
34. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, иккинчи том. Наводир ун-нихоя. – Тошкент: Фан, 1987. – 624 б.
35. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, учинчи том. Ғаройиб ус-сиғар – Тошкент: Фан, 1988. – 616 б.
36. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, бешинчи том. Хазойинул маоний. Бадоеъ ул-васат. – Тошкент: Фан, 1990. – 542 б.
37. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, еттинчи том. Ҳайратул-аброр. – Тошкент: Фан, 1991. – 390 б.
38. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, ўн иккинчи том. Лисонут-тайр. – Тошкент: Фан, 1996. – 326 б.
39. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, ўн бешинчи том. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 1987. – 724 б.

40. Абдурахмон Жомий. Ғазаллардан. Тузувчи ва тўпловчи Ш.Шомухаммедов, Масъул муҳаррир М.Муинзода. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971.– 357 б.

IV. Lug‘atlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1-5-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 2008.